Boturxon Valixo'jayev

Alisher Navoiy she'riyati

Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning ko'pqirrali ijodiy merosi ichida uning she'riyati ham alohida mavqe'ga ega. Mumtoz she'riyatning deyarli barcha nav'larida (janrlarida) go'zal asarlar ijod qilgan Alisher Navoiy xususan g`azal janrini yuqori cho'qqilarga ko'targani jihatidan uni g'azal mulkining sultoni deb haqli tarzda e'zozlaydilar.

Bakalavr, magistr, aspirant va o'qituvchilarga mo'ljallangan mazkur qo'llanmada Alisher Navoiyning ana shu sohadagi faoliyatidan ixcham tarzda so'z yuritiladi.

Kirish o'rnida

I. Alisher Navoiyning o'zbek tilida yozgan she'riyati:
I.I. Devonlari
- Alisher Navoiy she'riyatining muxlislari tomonidan tuzilgan "Ilk devon".
- Alisher Navoiyning o'zi tuzgan devonlar:
- Birinchi devon – "Badoye' ul-bidoya";
- Ikkinchi devon – "Navodir un-nihoya";
- Uchinchi devonlar turkumi – "Xazoyin ul-maoni".

I.2. Rasmiy devonlarga kirmagan she'riyat.
I.3. "Nazm ul-javohir".
I.4. "Arba'in".
I.5. "Siroj ul-muslimin".
2. Alisher Navoiy – Foniyning fors tilidagi she'riyati.
2.1. "Devoni Foniy" yoki "Devoni forsiy".
2.2. "Sittayi zaruriya" – "To'hfat ul-afkor".
3. Alisher Navoiy she'riyatida faxriya (xulosa o'rnida)
4. Manba' va adabiyot.

Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning ko'pqirrali va boy ilmiy-adabiy merosi o'zbek badiiy adabiyoti va ilmi tarixining yangi ulkan sahifasini tashkil etadi. Chunki Alisher Navoiy she'riyatda ham, dostonnavislik va xamsa yaratishda ham, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, falsafa – tasavvuf tarixi va boshqa sohalarda yangilik yaratdi, o'zbek ilmi va badiiy adabiyotida bundan oldingi davrlarda ishlanmagan va yoki kam ishlangan yo'nalishlarda asarlar yozdi, mavjudlarini esa taraqqiyotning yuqori bosqichiga ko'tardi.

Alisher Navoiyning boy adabiy-ilmiy merosi nazm va nasrda yaratildi. Ulug' shoir va mutafakkir o'sha davrdagi zullisonaynlik (o'zbek va fors-tojik tillarida ijod etish) an'anasini qo'llab-quvvatlagan holda o'z merosining asosiy qismini turkiy-o'zbek tilida ijod qildi. Ustozi Abdurahmon Jomiy bu masalaga alohida to'xtalib, shunday degan: "Agarchi Alisher Navoiyning keng qobiliyati she'rning har ikki – turkiy va forsiy nav'ida iqtidorlidir, ammo uning mayli qo'proq turkiyda bo'lib, bu tilda yozganlari forsiydan ko'pdir".

Zahiriddin Muhammad Bobur esa bu haqda shunday yozgan edi: "(Mir Alisher Navoiy) turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas".

Boburning ta'kidlaganidek, Alisher Navoiyning merosida she'riyat alohida bir salohiyatga ega. Bu she'riyat ikki-turkiy-o'zbek va forsiy-tojik tillarida yozilganidan avval o'zbek tilidagi so'ng esa fors tilidagi she'riyatidan bahs yuritish maqsadga muvofiq ko'rindi.

Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'riyati

1. Taxallus – Navoiy va uning ma'nolari.
2. O'zbek she'riyatini o'z ichiga olgan devonlar.
3. Alohida she'riy asarlar ("Nazm ul-javohir", "Arbain", "Siroj ul-muslimin").
4. Rasmiy devonlarga kirmagan she'riy parchalar (nasriy asarlarida: "Mahbub ul-qulub"…).

Nizomiddin Amir Alisher turkiy-o'zbek she'riyatda Navoiy taxallusini qo'llab, Alisher Navoiy sifatida shuhrat qozongan. Ulug' shoirning o'zlari ham bu haqda shunday yozganlar: "takallum ahli xirmanining xo'shachini va so'z durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalebi nag'masaroyi, ya'ni Alisher al-mutaxallis b-in-Navoiy… mundoq arz qilurkim…"

Navoiy – "navo" so'zidan yasalgan bo'lib, uning ma'no qirralari ko'pdir. Jumladan, "navo-kuy", "navo-chora, tadbir", "navo-shuhrat, mashhur" va boshqalar.

Alisher Naviy she'riyatida bu ma'nolar o'z ifodasini topgan.

Masalan:

1. Navo-kuy, go'shiq:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo.

2. Navo-chora, tadbir; benavo-navosiz-chorasiz, bechora.

a. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'l.

b. G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

1. Navo-shuhrat, mashhur; chora:

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'lubtur.

DEVONLAR

Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'riyati bir necha marta devon holiga keltirilgan. Bularning soni to'rtta bo'lib, birinchisi "Ilk devon", ikkinchisi "Badoye' ul-bidoya", uchinchisi "Navodir un-nihoya" va to'rtinchisi "Xazoyin ul-maoni"dir.

Alisher Navoiy she'riyatining muxlislari tomonidan tuzilgan birinchi devon – "Ilk devon".

"Ilk devon". Bu devon Alisher Navoiyning 24 yasharligigacha yozilgan she'rlarni o'z ichiga oladi. Uni Alisher Navoiyning o'zlari emas, balki she'riyatlari va o'zlarining noma'lum muxlislari katta ixlos bilan tuzganlar. Devon 870-hijriy – 1465-1466 – melodiy yilda Sulton Ali Mashhadiyning go'zal nastaliq xati bilan ko'chirilgan, noma'lum musavvir esa devonning zarvarag'i-ikkinchi-uchinchi betlari hamda qolgan varaqlarning hammasini go'zal naqshlar bilan ziynatlagan. San'at jihatidan baland did bilan tayyorlangan bu devonning buyurtmachisi va she'rlarni to'plab, devon holiga keltirgan tuzuvchining nomlari noma'lum. Ammo ular faqat Alisher Navoiy she'riyatininggina emas, balki o'zining (Alisher Navoiyning) ham samimiy muxlislari bo'lib, moliyaviy jihatdan iqtidorli va bilim saviyasi nuqtayi nazaridan yetuk shaxslar bo'lganlar. Devonga nom qo'yilmaganidan uning faksimil (foto) nusxasini birinchi marta nashrga (Toshkent, "Fan", 1968-yil) tayyorlagan Hamid Sulaymon uni "Ilk devon" tarzida nomladilar. Alisher Navoiy ham o'zlari tuzgan birinchi devon – "Badoye' ul-bidoya" debochasida uning nomini keltirmasdan faqat shunday yozadilar: "Xaloyiq orasida ming bayt – ikki ming bayt ortuqroq - o'ksukrakkim, o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi" (MAT, 1-tom, 24-bet).

"Ilk devon"ning tarkibi to'rtta janrdagi asarlardan iborat: g'azal (391-ta), mustazod (1-ta), muxammas (1-ta) va ruboyi (41-ta). Ularning jam'i 434 asar bo'lib, 2935,5 bayt – 5871 misrani tashkil etadi.

"Ilk devon"dagi birinchi g'azalning matla'i quyidagicha:

Iloho, podshoho, kirdikoro,
Sanga ochug' nihonu oshkoro,

Devon quyidagi ruboyi bilan yakunlanadi:

Oxir dami umr ista shitob, ey soqiy,
Tutg'il manga oncha mayi nob, ey soqiy,
Kim hashrda mast o'layu xarob, ey soqiy,
To anglamay etsalar azob, ey soqiy.

Shundan so'ng devonning ko'chiruvchisi Sulton Ali Mashhadiy bo'lib, bu ish 870-hijriy (1465-1466-melodiy) yilda nihoyasiga yetganini bildiruvchi arab tilidagi yozuv keltiriladi.

Devondagi ayrim g'azallarga arab tilida sarlavha ham qo'yilgan. Masalan:

1. Va min maqolot:

Kishikim, istasakim yetmagay malolat anga,
Kerakmas ahli jahon birla zavqu holat anga.

2. Va min latoifi tab':

Necha ko'nglum pora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,
Necha bag'rim tutsa qon, boqmas dame dildor anga.

Bu sarlavhalar devonni tuzuvchi tomonidan qo'yilgan bo'lib, g'azallarning mavzulariga ishora qiladi. Jumladan, birinchi misolda ijtimoiy-falsafiy-axloqiy, ikkinchisida esa ishqiy mavzularga daxldorligi uqtirilgan,

Devondagi g'azallar turli mavzularga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida Alisher Navoiy she'riyati muxlislarini hanuzgacha maftun etib kelayotgan quyidagi matla'li g'azallar ham bor:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo.

Yana:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Bu holat mazkur matla'lar bilan boshlanadigan g'azallarning yozilish tarixi haqida ma'lum bir tushuncha beradi, ya'ni ular Alisher Navoiyning 24 yasharligigacha yozilgan ko'rinadilar. Ular yozilayotganda shoir badiiy mahoratining yetukligini ham namoyish etadilar. Devondagi ruboyilar qatoridan esa quyida keltiriladigan mashhur ruboyi matniy farq bilan o'rin olgan:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga rafiqu mehribon bo'lmas emish,
Oltun qadah ichraki qizil gul bo'lsa,
Bulbul (ga) tikondek oshyon bo'lmas emish.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning o'zlari tuzgan devonlarda bu ruboyi quyidagi tarzda keltiriladi va u shu tarzda mashhurdir:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish,
Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

Bundan qat'iy nazar, ruboyining "Ilk devon"dan o'rin olganligi uning yozilgan davrini, ya'ni shoirning 24 yasharligigacha bo'lgan davrda yozilganini taxminan bo'lsa-da, aniqlashga ko'maklashadi.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning 24 yasharligigacha bo'lgan davrda yozgan she'rlarining ilk to'plami – devoni uning muxlislari tomonidan tuzilgan bo'lib, hozirgi vaqtda u "Ilk devon" nomi bilan ataladi. Bu devondagi she'rlar keyinchalik Alisher Navoiyning o'zlari tuzgan "Badoye' ul-bidoya" va "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritilgan.

(Shuni ham nazarda tutmoq lozimki, garchi bu devon XX asrning 60-yillarida "Ilk devon" tarzida nomlangan bo'lsa-da, ammo ana shu nusxaning tuzilgan davri va kochirilgan yili masalasi navoiyshunoslikda uzil-kesil hal qilingan, deb bo'lmaydi).

Alisher Navoiyning o'zlari tuzgan devonlar

1. "Badoye' ul-bidoya".

Avvalo, devon nominig tarjimasi-ma'nosi haqida: "badoye'" so'zi "bade' "ning ko'plik shakli bo'lib, uning ma'nolari quyidagicha: kamyob, mislsiz, ajoyib, yangi, yangi ixtiro' qilingan. "Bidoya" esa "boshlanish, og'oz" ma'nosini anglatadi. Bas shunday ekan, "Badoye' ul-bidoya" – ajoyib yangiliklarning boshlanishi ma'nosini anglatadi. "Badoye' ul-bidoya" 1479-1480-yillar orasida tuzilgan bo'lib, uning 1480-yilda ko'chirilgan va Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy nusxasi bu fikrni tasdiqlaydi.

"Badoye' ul-bidoya" devonini tartib berish, tuzish sabablari, uning o'ziga xos xususiyatlari Alisher Navoiy tomonidan shu devonga yozilgan debochada juda kamtarlik va, shuning bilan birga, ko'tarinki ruhda bayon qilingan. Alisher Navoiyning shu debochada uqtirishlaricha, bu devon tuzilganga qadar yozilgan she'rlari mashhur bo'lib ketgan bo'lsa-da, ammo ularni yig'ib devon holiga keltirishga shoir shoshilmas, aniqrog'i botina olmas edi. Faqat Sulton Husayn Boyqaroning she'rlarni yig'ib, devon tuzishga hukm-buyruq qilgani tufayli Alisher Navoiy bu ishga kirishganini shunday bayon qilgan:

Tilarbiz bu parishon bo'lsa majmo'',
Ravon bo'lkim, emastur uzr masmo''...
Bu nav' istaydur emdi royi oliy,
Ki qilg'ay fikrating devon xayoli...
Chu bilding hukm, bor, ishtin rujo''et,
Ravon maqsad sori-o'q shuro'' et!
Murattab qilmag'uncha, tinma bir dam,
So'z o'ldi muxtasar, v-Ollohu a'lam.
(MAT, 1-tom, 19-bet).

Demak, ulug' shoirning o'z she'rlarini tuzish masalasidagi ikkilanishlari sultonning hukmi bilan oradan ketadi va u bu ishni amalga oshirishga bel bog'laydi:

Chun xiraddin keldi bo'yla navid,
Manga bo'ldi o'zumdin o'zga umid,
Tengri tavfiqin iddio aylab,
Shoh janobig'a iltijo aylab,
Hukm mazmuniga qalam chektim,
Safha tartibig'a raqam chektim.

(MAT, 1-tom, 20-bet)

Shunisi ham borki, mazkur devonni tuzishda Alisher Navoiyni o'ylantirib qo'ygan narsa-devonning ungacha yaratilgan devonlardan farqli bo'lishi yoki, boshqacha aytganda, tuzilishi ham, tarkibi ham boshqalarga o'xshamasligi lozimligi fikry xayoli edi. Bu hol shu devon uchun yozilgan debochada ham o'z aksini topgan. Natijada Alisher Navoiy uning hallini topadi: birinchidan, devonga 32 harf bilan tugallanadigan g'azallarni kiritadi, ikkinchidan, har harf g'azallarini ham ma'lum tartibda joylashtiradi: "Har harf g'azaliyotining avvalg'i g'azalini yo Tangri taolo hamdi bila muvashshah (ziynatlangan), yo Rasul alayhis-salom na'ti bila mufattah (ochilgan), yo bir mav'iza bilakim, bu ikki ishdin biriga dol bo'lg'ay muvazzah (ajratmoq, guruhlashtirmoq) qilindi" (MAT, 1-tom, 21-bet).

Uchinchidan, oshiqona g'azallarda mav'iza, hikmat va pand-nasihatlarni ham kiritdi; to'rtinchidan, g'azallarning yakpora bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Devonga g'azal, muxammas, musaddas, ruboyi, qit'a, mustazod, fard, muammo, lug'z, tarje'band va tuyug' kabi mumtoz she'riyatdagi o'n bir janrda yozilgan asarlarni kiritdi. Alisher Navoiyning bu davrda bitilgan qasida va masnaviylari bo'lsa-da, ulardan alohida to'plamlar tuzish niyati borligi bayon etilib, ular "Badoye' ul-bidoya"ga kiritilmagan.

"Badoye' ul-bidoya" Alisher Navoiyning yoshligi davridan boshlab, 1479-1480-yillar oralig'ida yozilgan she'rlarini (ya'ni "Ilk devon"dagilarni ham) qamrab oladi.

"Ilk devon" tuzilganidan (1465-1466-yillar) "Badoye' ul-bidoya" tartib berilgan vaqtga qadar (1479-1480 yillar) Alisher Navoiy she'riyatidagi janriy taraqiyotni ko'zdan kechirish uchun ikki devonning tarkibi quyidagi chizmada ko'rsatiladi:

	Ilk devon		Badoye' ul-bidoya		Izoh
	janr	on	janr	on	
.	G'azal	91	Devocha (nasr va nazm)		"Badoye' ul-bidoya"
.	Ruboiy	1	G'azal	77	tuzilgan davrda Alisher
.	Muxammas		Ruboiy	3	Navoiyning "Hiloliya"
.	Mustazod		Muxammas		qasidasi va Sayyid
	4-ta janr	34	Mustazod		Hasan Ardasherga
			Musaddas		yozgan masnaviy-
			Tarje'band		maktubi bo'lgan, ammo
			Qit'a	3	ular "Badoye' ul-

			.	Lug'z	0	bidoya"ga kiritilmagan.
			0.	Muammo	2	Agar ular ham
			1.	Tuyug'	0	e'tiborga olinsa,
			2.	Fard	3	Alisher Navoiy bu
				Debocha, 11 janr	041	davrda 13 janrda asarlar yozgan. "Badoye' ul-bidoya"ga oid chizma MAT ning 1-tomi asosida tuzildi.

Mazkur chizmada faqat janr va asarlar sonigina ko'rsatilgan bo'lsa-da, shundan ham ikki devon oralig'idagi fursatda Alisher Navoiy she'riyati bu sohada ham boyib borganining guvohi bo'lish mumkin. Masalaning muhim tomoni ana shu she'riyat mavzu doirasining kengaygani, shoir badiiy mahoratining esa yanada takomillashgani, timsollar talqinidagi yangiliklar keyingi boblarda nazardan o'tkaziladi.

"Badoye' ul-bidoya" "Ilk devon"dan farqli o'laroq quyidagi matla'li g'azal bilan boshlanadi:

Ashraqat min aksi shams il-ka'si anvor ul-hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.
(MAT, 1-tom, 29-bet).

Devon quyidagi fard bilan yakunlangan:

Sel yo'lida fano dashtida mujgonim emas,
Ko'z alochuqlarining dud yegon o'qlaridurur.
(MAT, 1-tom, 692-bet).

Shuning bilan birga "Badoye' ul-bidoya"da "Ilk devon"dan farqli tarzda g'azallarga va boshqa janrdagi asarlarga ham sarlavha qo'yilmagan. Faqat "lug'z" va "muammo" bo'limlarida ashyo va shaxs nomlari qayd qilingan, xolos.

"Badoye' ul-bidoya"dagi asarlar keyinchalik tuzilgan "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritilgan.

1. "Navodir un-nihoya". Avvalo devon nomining tarjimasi-ma'nosi haqida: "navodir"-"nodir" so'zining ko'plik shakli bo'lib, uning ma'nosi nodir, yakka-yagonadir. "Nihoya" esa "nihoyat, juda ko'p" ma'nosidadir. Bas shunday ekan, "Navodir un-nihoya" – nihoyat ko'p nodirliklar ma'nosini anglatadi.

"Navodir un-nihoya" 1486-1487-yilda Alisher Navoiyning o'zlari tuzgan ikkinchi devondir. Devonning 1487-yilda Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan nisbatan to'liq nusxasi bizgacha yetib kelgan. Xuddi ana shunday nisbatan to'liq nusxa Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ham ko'chirilgan. Devonning yana bir noto'liq nusxasi ham borki, hozirda u Tehrondagi Guliston qasri kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxada Alisher Navoiy dastxati (avtograf) va mo'hri bo'lganligi bilan qimmatlidir.

Devonning birinchi betida Alisher Navoiyning quyidagi dastxati (avtograf) bor:

Ziyo ul-haq va-d-dunyovu v-ad-din,
Berib ikkinchi devonimg'a tazyin.
Savod uzra savod ar qildi mastur,
Vale ma'nidadur nur ala nur.

Katabahu al-abd al-faqir Alisher al-mashhur bi-n-Navoiy (yozuvchi Navoiy tarzida mashhur banda va faqir Alisher).

Alisher Navoiy mo'hrida esa quyidagi so'zlar bitilgan: "Kun osha fi-d-dunyo k-al-g'arib al-faqir Alisher" (dunyoda g'arib va faqir Alisherdek yasha).

"Navodir un-nihoya"ning tuzilishi va tarkibi haqida Alisher Navoiy o'zining "Xazoyin ul-maoni" uchun yozgan debochasida shunday yozadi:

"("Badoye' ul-bidoya"dan) so'ngra dag'i ul jam'u tartibdin boshqa yana har taqrib bila har nav' abyotkim, aytilib erdiyu har nav' g'azaliyotkim yig'ilib erdi, ul xayol shabistonining duraxshon axtarlarin va ul ko'ngul maxzanining duraxshon gavharlarin dag'i ikkinchi devonimdakim, "Navodir un-nihoya"g'a mashhurdur, rabtu tartib berib, debochasida sharh bila aizzayi ashobu ajillayi ahbob xizmatlarida arz qilib erdim" (MAT, 3-tom, 10-bet).

Bundan ma'lum bo'ladiki, "Navodir un-nihoya" debocha va har xil g'azallardan tashkil topgan ekan. Ammo hozirgi kunda bu devonning debochasi yetib kelmagan bo'lib, faqat g'azallar (862-ta) kiritilgan nusxalari mavjud. Demak, "Navodir un-hihoya"ning bizga ma'lum bo'lgan nusxalari faqat bir janr-g'azallardan iboratdir.

Devonning birinchi g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo.
(MAT, 2-tom, 9-bet).

Devon quyidagi bayt bilan nihoyasiga yetadi:

Ey Navoiy, oni tark aylaki ko'ptur g'ami ishq,
Menki chektim g'amini, tarki ne imkon emdi.
(MAT, 2-tom, 596-bet).

Bu devondagi g'azallarga ham sarlavhalar qo'yilmagan. Devondagi g'azallar keyinchalik tuzilgan "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritilgan.

"Xazoyin ul-maoni". "Ma'nolar xazinalari" ma'nosidagi bu devonlar turkumi Alisher Navoiy umrining 50-60 yoshlari orasida (1491-1498-yillar) tuzilgan. Uning tartib berilishiga Sulton Husayn Boyqaroning "farmoni vojib ul-iz'oni" (itoat qilishga majbur farmoni) bois bo'lgan. Bu ishni amalga oshirishdan oldin ustozi Abdurahmon Jomiy bilan maslahatlashadi hamda Sulton Husayn Boyqaro farmonidagi ishoraga rioya qilib, umri davomida yozgan turkiy-o'zbek tilidagi she'rlarini to'rt devon holiga keltirishni ma'qul deb topadi. Bu haqda Alisher Navoiy "Munshaot"idagi maktublaridan birida shunday yozadi: "Bu oz vaqtda ko'p nazm aytilg'on ermish va har nav' she'r va g'azal bitilgan ermish zoye' qilmoq bandag'a nomaqdur erdi va tartibig'a ham hukm bila ma'mur (Sulton Husayn Boyqaro hukmi-farmoni nazarda tutilmoqda – B.V.). Bu sababdin burung'i ikki devoni ash'or (ya'ni "Badoye' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" – B.V.) bila so'ngra aytilg'onlari bila qo'shub, tartib bila to'rt ayrildi, dag'i to'rt ot qilib bitildi.

Tufuliyat (yoshlik)da voqe' bo'lg'on g'arib ma'nolarg'a "G'aroyib us-sig'ar" va yigitlikda zohir bo'lg'an nodir tarkiblarg'a "Navodir ush-shabob" va umrning vasatida jilva qilg'on bade'vashlarg'a "Badoye' ul-vasat" va umrning oxirig'a yaqin nazmg'a kirgan foidalarg'a "Favoyid ul-kibar" ot qo'yildi. Dag'i majmo'ig'akim, maxlut bitilibdurur, chun tab' xazoyinidin hosil bo'lg'on maoni erdi "Xazoyin ul-maoni" laqab berildi. (MAT, 14-tom, 173-bet). Demak, "Xazoyin ul-maoni" quyidagi to'rtta devondan iboratdir:

1. "G'aroyib us-sig'ar" (yoshlikning ajoyibotlari) – 7-8 yasharlikdan 20 yasharlikgacha yozilgan she'rlarni o'z ichiga oladi.
2. "Navodir ush-shabob" (yigitlikning nodirliklari) – 20-35 yasharlikda yozilgan she'riyatni qamrab olgan.
3. "Badoye' ul-vasat" (o'rta yoshning ajoyib yangiliklari) – 35-45 yoshlar orasida bitilgan she'rlardan iborat.
4. "Favoyid ul-kibar" (keksalikning foidalari) – 45-60 yoshga yaqin vaqtda yozilgan she'rlarni o'z ichiga oladi.

Garchi Alisher Navoiyning o'zlari devonlarga kiritilgan she'rlarning yozilishi vaqti-umrning qaysi fasllari (yoshlik, yigitlik, o'rta yosh, keksalik) ekanini ko'rsatgan bo'lsalarda, navoiyshunoslarning

ta’kidlashlaricha, “Xazoyin ul-maoni”ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida ularning aralashib ketganligi ham kuzatiladi. Alisher Navoiy o'zlarining “Mezon ul-avzon”larida ham “Xazoyin ul-maoni” haqida gapirib, undagi har bir g'azal ustiga uning aruzning qaysi bahr va vaznida yozilganini ko'rsatganlarini eslatganlar: “Bu bandaning (Alisher Navoiyning) dag'i to'rt devonimg'akim, turkcha til bila nazm topibdur va abyoti adadi yigirma besh mingga yaqinlashibdurkim, ushbu mazkur bo'lg'on dastur bila tartib berilibdur”. “Xazoyin ul-maoni”ning ana shu tartibda tuzilgan nusxasi ham hozircha noma’lum bo'lib qolmoqda.

“Xazoyin ul-maoni”ning Hamid Sulaymon aniqlagan janriy tarkibini quyidagi chizmadan bilish mumkin:

№	Janr	Soni	Izoh
	Debocha	1	
1.	G'azal	2600	1. G'azallar to'rt devonning har birida 650 tadan joylashtirilgan.
2.	Ruboiy	133	
3.	Muxammas	10	
4.	Mustazod	4	
5.	Musaddas	5	
6.	Tarje’band	4	
7.	Qit’a	210	
8.	Lug'z-chiston	10	
9.	Muammo	52	
10.	Tuyug'	13	
11.	Fard	86	
12.	Masnaviy	1	
13.	Qasida	1	
14.	Musamman	1	
15.	Tarkibband	1	
16.	Soqinoma	1	
	16 janr	3132	
	Baytlar soni:	22450,5	
	Misralar soni:	~45000	

"Ilk devon" va "Badoye' ul-bidoya" devonlari janriy tarkibiga doir chizma bilan "Xazoyin ul-maoni" tarkibi haqidagi yuqorida keltirilgan chizma qiyosiy o'rganilganda shu narsa ayon bo'ladiki, Alisher Navoiy XV asrning 50-60-yillarida, ya'ni 25 yasharligigacha, mumtoz she'riyatning to'rtta janrida ijod qilgan bo'lsalar, 80-yillarning avvalida o'n uch janrda, 90-yillarga kelib esa o'n olti janrdagi asarlarini yozganlar. Bu hol Alisher Navoiygacha va ularning zamondoshlari bo'lgan turkigo'y va forsiygo'y shoirlar devonlari bilan chog'ishtirilganda ham hech qaysi shoirda Alisher Navoiydek ko'p janrlardan samarali foydalanganlik ko'zga tashlanmaydi. Bu jihatdan ham Alisher Navoiy o'zbek she'riyati xazinasini qimmatbaho asarlari bilan boyitib, o'zbek tilining esa naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanini isbotlab berdilar.

"Xazoyin ul-maoni" devoni xuddi "Badoye' ul-bidoya" devoni kabi quyidagi matla'li g'azal bilan boshlanadi:

Ashraqat min aksi shams il-ka'si anvor ul-hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.
(MAT, 3-tom, 25-bet).

"Xazoyin ul-maoni" quyidagi fard bilan tugallanadi:

Sayl yo'lida fano dashtida mujgonim emas,
Ko'z olochug'larining dud yegan ug'laridur.
(MAT, 6-tom, 539-bet).

Yoqorida ko'rib o'tganimizdek, "Badoye' ul-bidoya" devoni ham xuddi ana shu fard (matniy farqlar bor) bilan yakunlanadi. Vaholonki, "Xazoyin ul-maoni"ning oxirgi devoni "Favoyid ul-kibar" bo'lib, yuqorida keltirilgan yakuniy fard ana shu devonning oxirida keltirilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" tarkibidagi devonlarga she'rlarni joylashtirish umr fasllari bilan bog'likligi haqidagi ta'kidi qat'iy cheklanmagan bo'lib, ular nisbiydurlar. Bunday mulohazani yana quyidagi dalillar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoni"sining ikkinchi devoni bo'lmish "Navodir ush-shabob" tarkibiga shoirning ellik yoshda ekanligi qayd qilingan g'azallarni ham uchratish mumkin. Vaholonki ular umr fasllari bilan joylashtirish niyatidan kelib chiqilganda "Xazoyin ul-maoni"ning oxirgi devoni "Favoid ul-kibar"dan joy olishi mantiqiydir. "Navodir ush-shabob"dagi g'azallar quyidagilardir:

Orazing hajrida zor erdim quyosh botqon chog'i,
Kim sabo payki manga yetkurdi bir gul yafrog'i…
Yoshim ellik bo'ldi yuz hasrat yesamkim sudi yo'q,
O'zni maydin xush tutay chun o'tti umrum xushrog'i.
(MAT, 4-tom, 424-425-1).

Yana:

Chun so'z aytursen labing titrar g'azab qilg'on chog'i,
Rost andoqkim sabo tahrikidin gul yafrog'i…
Menki ellik yil chekib g'am topmadim xushvaqtliq
Topqamenmu umrning emdiki o'tmish xushrog'i.
(MAT, 4-tom, 426-427-betlar).

"Xazoyin ul-maoni" devonlarida g'azallar joylashtirilganda ularga alohida sarlavhalar qo'yilmagan, balki har bir harf bilan tugallanadigan (masalan, "alif", "be" va boshqalar) g'azallarning birinchisida ana shu harflar nomi bilan (masalan, "alif" harfining ofatlarining ibtidosi", "be" harfining balolarining bidoyati tarzida) sarlavhalar qo'yilgan. Shuning bilan birga chiston, muammo va qit'alarning har biriga esa o'ziga mos sarlavhalar qo'yilgan.

G'azallarni joylashtirishda avval hamd, na't va mav'iza mavzuidagilari keltirilgan. So'ng esa boshqa mavzularga bag'ishlanganlari joylashtirilgan.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'riyati to'rtta devonda to'plangan bo'lib, ulardan birini ("Ilk devon") muxlislar tuzgan bo'lsalar, qolgan uchtasini Alisher Navoiyning o'zlari

tuzganlar. Bulardan birinchi ("Badoye' ul-bidoya") va ikkinchisi ("Navodir un-nihoya") bir jildlik tarzida tartib berilgan bo'lsa, uchinchisi ("Xazoyin ul-maoni") devonlar turkumidan, ya'ni to'rt devondan iborat yaxlit qomusiy asardir.

Alisher Navoiyning o'zlari tartib bergan devonlarning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi, ya'ni ular tuzilish jihatidan biri ikkinchisining aynan takrori emas, balki yangi va farqlidir. Bu hol devon tartib berish ishiga Alisher Navoiyning jiddiy munosabatda bo'lganlaridan, bu ishning juda katta mas'uliyatini nihoyatda teran anglaganlaridan dalolat beradi. Ana shuning tufayli turkiy she'riyatda bu devonlar nodir badiiy hodisa, takrorlanmas voqea bo'lib qoldi.

Shuni alohida uqtirish lozimki, "Xazoyin ul-maoni", Alisher Navoiyning 1498-yilga qadar yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan bo'lib, undan so'ng umri oxirigacha (1501-yil) yozilgan she'rlar hamda nasriy asarlardagi turli janrdagi (masnaviy, qit'a, rubobiy, fard…) she'rlari ham unga kiritilmagan.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" devonlar turkumi o'zining mukammalligi va she'riyatining qomusi bo'lganligi bilan ajralib turishini nazarda tutib, shoir she'riyatining mavzu doirasi, timsollari olami, badiiyligi sehrlari haqida so'z yuritishda "Xazoyin ul-maoni"ga asoslanamiz.

Adabiyot:

a) Manbalar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (MAT), 20-tomlik, 1-6-tomlar, Toshkent, "Fan", 1987-1990.
2. Alisher Navoiy. Ilk devon. Toshkent, "Fan", 1968.

a) Ilmiy:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom, Toshkent, "Fan", 1978.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATINING TUZILISHI, MAVZU DOIRASI, TIMSOLLARI VA BADIIYATI

"Xazoyin ul-maoni"dagi asarlar orasida g'azallar yetakchi bo'lib, ularning har jihatdan ibratliligidan Alisher Navoiy g'azal mulkining sultoni sifatida mashhurdirlar. Ana shu asosda birinchi navbatda g'azallar haqida so'z yuritish ma'qul ko'rindi.

G'azal. "Xazoyin ul-maoni"da 2600 g'azal kiritilgan bo'lib, ular to'rt devonning har biriga 650 tadan joylashtirilgan.

Alisher Navoiy o'z g'azallarining necha baytlardan tuzilganligi haqida shunday yozganlar:

Navoiy she'ri to'qquz baytu, o'n bir bayt, o'n uch bayt –
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.
Bukim, albatta, yetti baytdin uksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.
(MAT. 5-tom, 499-bet)

Demak, Alisher Navoiyning g'azallari 7, 9, 11, 13 baytdan tashkil topib, ular orasida yetti baytdan kami ko'rinmaydi.

Alisher Navoiy g'azallari g'azal janri oldiga qo'yiladigan rasmiy talablarga to'la ravishda mos bo'lib, ular matla' (birinchi, boshlanma bayt) hamda maqta' (yakunlovchi bayt) ga egadirlar. Odatda maqta'da shoirning adabiy taxallusi (Navoiy) keltiriladi. G'azallarning hammasida qofiya mavjud bo'lib, ular orasida radif qo'llanilganlari ham anchagina. Shuni ham nazarda tutmoq lozimki, g'azallarning tuzilishi faqat ularda baytlar soni, qofiya, radif, matla', maqta' va taxallusning qo'llanilgani bilangina

cheklanmaydi, balki ana shu baytlarning g'azal ichida o'zaro bog'liligi yoki bog'li emasligi masalasi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy g'azallarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Baytlari mantiqiy va shakliy jihatdan o'zaro bog'langan g'azallar. Ular ko'pincha yakpora g'azallar deb ham yuritiladi. Bunday g'azallar aksariyatni tashkil etadi.

2. Baytlari o'zaro (mantiqiy va shakliy) bog'lanmagan, ammo umummavzu jihatdan yaxlitlikni tashkil etuvchi g'azallar.

Shu jihatdan, avval, yakpora g'azallar va ularning xususiyatlarini nazardan o'tkazish ma'qul ko'rindi. Alisher Navoiy "Badoye' ul-bidoya" devoni uchun yozgan debochada g'azallarning yakpora bo'lishi masalasiga alohida to'xtalgan edilar. Shunisi muhimki, g'azalning yakpora bo'lishi faqat shakliy jihatga emas, balki, birinchi navbatda, mazmun va mantiqqa bog'li ekanligi ta'kidlangan.

Jumladan:

"Soyir davovinda rasmiy g'azal uslubidinkim, shoye'durur, tajovuz qilib, maxsus nav'larda so'z aro'sining jilvasig'a namoyish va jamolig'a oroyish bermaydurlar. Va agar ahyonan matlaye maxsus nav'da voqe' bo'lg'on bo'lsa, hamul matla' uslubi bilan itmom xil'atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tugaguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdur. Bu surat dag'i munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiroq ko'rundi. Ul jihatdin sa'y qilindikim, har mazmunda matlaye voqe' bo'lsa, aksar andog' bo'lg'aykim, maqta'g'acha surat haysiyatidin muvofiq va ma'no jonibidin mutobiq tushgay" (MAT, 1-tom, 22-bet).

Mazmuni: Ko'pgina devonlarda rasmiy g'azalning ma'lum bo'lgan uslubidan chetga chiqish kuzatiladi. Natijada matla'da bayon etilgan fikr maqta'gacha davom ettirilmaydi, balki bir baytda visol, ikkinchisida esa firoq haqida yoziladi. Bu hol rasmiy g'azal talablariga mos kelmaydi. Shuning uchun harakat qilindikim, matla'da bayon etilgan mazmun maqta'gacha davom etib, mazmun jihatidan muvofiqlik maydonga kelgay.

Demak, Alisher Navoiy mumtoz she'riyatdagi rasmiy g'azal an'anasini davom ettirishni o'rtaga qo'yganday bo'ladi. Ammo Alisher Navoiyning g'azallari ko'zdan kechirilganda shoir mazkur masalani kengroq ma'noda tushinib amal qilganligi ma'lum bo'ladi. Chunki, uning g'azallarida faqat an'anaviy ishqu oshiqlikdangina bahs yuritilmaydi, balki rasmiy g'azalning shaklidan foydalanilgan holda ijtimoyi, falsafiy, tasavvufiy va axloqiy mavzulardan bahs yuritish ham keng tarzda ko'zga tashlanadi.

Bu o'rinda Alisher Navoiyning o'z g'azallarining ham an'anaviy va ham o'ziga xosligi haqida yozgan quyidagi qit'asi diqqatga sazovordir:

G'azalda uch kishi tavridur ul nav'
Kim andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.
Biri mo''jiz bayonlig' sohiri Hind
Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.
Biri Isonafaslik rindi Sheroz,
Fano dayrida mastu louboli.
Biri qudsiy asarlik orifi Jom
Ki jomi Jamdur singan safoli.
Navoiy nazmiga boqsang, emastur
Bu uchning holidin har bayti xoli.
Hamono ko'zgudurkim, aks solmish
Anga uch sho'x mahvashning jamoli
(MAT, 6-tom, 516-bet).

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy o'z g'azallarida "ishq so'zi" ("sohiri Hind" – Xusrav Dehlaviy yo'nalishi), "fano dayri"dagi rindonalik ("rindi Sheroz" – Hofiz Sheroziy yo'nalishi), "singan safol" – orifonalik ("orifi Jom" – Abdurahmon Jomiy yo'nalishi)ning qorishganiga alohida e'tiborni qaratadi. Bu bilan Alisher Navoiy sharq she'riyatining daholari bo'lmish Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiylarning har biriga xos uslublarning qorishuvi natijasida maydonga kelgan yangi

uslub – Navoiyona uslubga ishora qilmoqda. Ana shunday g'azallarning tuzilishida ham yakporalik – mavzu va mazmunni bayon etishda tadrijiylik, mantiqiylik, bog'lilikning saqlanishi nazarda tutiladi. Bas shunday ekan, Alisher Navoiy bu masalada o'zbek she'riyati tarixida katta bir yangilikni amalga oshirgan. Aytilganlarning tasdig'i uchun g'azallarga murojaat etaylik.

Ishq va oshiqlik mavzusidagi g'azallar

Shu maqsadni izohlashga xizmat qiladigan bir mashhur g'azalni ko'zdan kechirishdan oldin bu g'azalning o'sha davrda nihoyatda shuhrat tutganligi borasida Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin"da yozganlarini keltirish maqsadga muvofiq ko'rindi:

"Bir qatla bu faqirning (Alisher Navoiyning) turkcha bu matla'ikim:

Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag'ay erding bari olamg'a g'avg'o koshki, -

el orasida shuhrat tutub erdi va podshoh (Sulton Husayn Boyqaro) hazratlarining so'hbatlarida dag'i ko'p o'qilur erdi. Shuyo'' (keng tarqalish) va shuhrati ul erga yettikim, hazrati Maxdumg'a (ya'ni Abdurahmon Jomiyga) dag'i masmo'' (ma'qul) bo'ldi" (MAT, 15-tom, 71-bet).

"Xazoyin ul-maoni"ning "Navodir ush-shabob" devoniga kiritilgan bu g'azalning bunchalik shuhrati va keng tarqalishining boisi nimada? Nima uchun o'sha davrning eng kuchli she'rshunoslari tarzida e'tirof etilgan Abdurahmon Jomiy va Sulton Husayn Boyqarolar bu g'azalni nihoyatda e'zozlagan edilar? Shuning bilan birga faqat o'sha davrda emas, balki keyingi davrlarda ham uning ko'p izdoshlari maydonga kelgan edi?[1)]

Bu savollarga javobni g'azalning o'zidan axtarmoq lozim. Shu munosabat bilan uning to'liq matnini keltirib, so'ng mulohazalarni bayon etish maqsadga muvofiqdir.

Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag'ay erding bari olamg'a g'avg'o koshki.
Chun jamoling jilvasi olamg'a soldi rustaxez,
Qilmag'ay erdi ko'zum oni tamosho koshki.
Bo'lmag'ay erdi ko'zum o'tlug' yuzung ko'rgan zamon,
Ishqing o'ti sho'lasi ko'nglumda paydo koshki.
Aylagach ishqing balosi zor ko'nglumni hazin,
Qilmag'ay erding meni mahzung'a parvo koshki.
Tushmagay erdi firibomiz lutfung bilmayin,
Notavon ko'nglumga vaslingdin tamanno koshki.
Lutfila ko'nglumni vaslingdin talabgor aylabon,
Qilmag'ay erding yana zulm oshkoro koshki.
Bevafolig' anglag'ach ishqingni ko'nglum tark etib,
Qilmag'ay erdi o'zin olamda rasvo koshki.
Emdikim devonayu rasvoyi olam bo'lmisham,
Vasl uchun mumkin yo'q o'lturgay bu savdo koshki.
Ey Navoiy, bevafodur yor, bas ne foyida,
Nechakim desang "agar" yoxud "magar" yo "koshki".

(MAT, 4-tom, 451-452-betlar).

Mazkur g'azal to'qqiz baytdan iborat bo'lib, uning radifi "koshki" va qofiyani tashkil etuvchi so'zlar – "olamoro, g'avg'o, tamosho, paydo, parvo, tamanno, oshkoro, rasvo, savdo, yo"dan iborat. Radif "koshki" so'zi g'azalning faqat shakliy jihatdan yaxlitligini ta'minlab qolmasdan, balki u g'azaldagi asosiy "kalit" so'zlardan biridir. Chunki ana shu "koshki" turli savollar va ularga javoblarni ham yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, butun g'azal ana shu "koshki"ning mohiyatini

[1)] Mufassal ma'lumot uchun qaralsin: B.Valixo'jayev. Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy she'riyati. Qo'llanma, Samarqand, SamDU nashriyoti, 2000-yil.

sharhlovchi, aniqlovchi baytlar tizimidan iborat. "Koshki"da oshiq – lirik qahramonning tashvishi, iztirobi, afsuslanishi va umidvorliklari ham o'z ifodasini topgan. G'azalda "koshki" o'tgan zamon fe'llari bilan (ochmag'ay erding, solmag'ay erding, qilmag'ay erdi, bo'lmag'ay erdi, tushmagay erdi…) bog'li tarzda voqea sodir bo'lgan o'tgan zamonni bildiradi. G'azaldagi "jamoli olamoro", "ko'z", "ishq", "ko'ngul", "bevafolig'", "ishqingni ko'nglum tark etib" kabi so'z va iboralar ham "kalit"lik vazifasini bajaradilar. Chunki ular "koshki"ga javob bo'lguvchu, uni sharhlovchi voqea-hodisa, timsolni ifoda etadilar. Agar diqqat qilinsa, ana shu "kalit" so'z va iboralar butun g'azalda tasvirlangan voqea-hodisa hamda ruhiy holatlarning sababi va natijasidir: agarda yor – ma'shuqa olamni bezaydigan jamolini ochmaganda (ko'rsatmaganda) edi, oshiq-lirik qahramonning ko'zi unga tushib, uning ishqi ko'nglidan o'rin olmagan bo'lardi. Ammo yorning "firibomiz lutf", "zulm" va "bevafolik"larini anglagan oshiqning ko'ngli uning ishqini "tark etib", o'zini "olamda rasvo" qildi.

G'azalning maqta'si bu fikrni yana bir karra tasdiqlab, endi yorning ishqi haqida so'zlash foydasiz ekanligi uqtiriladi. Bayon etilgan asosiy voqea ana shu. G'azaldagi boshqa so'z, iboralar, "kalit" so'zlar ana shu asosiy voqeani sharhlash, izohlash va aniqlashga xizmat qiladi.

G'azalda tasvir etilgan voqeaning bayoni – hikoyasi va, shuning bilan birga, ana shu jarayonda hikoya qilguvchi oshiq-lirik qahramonning ruhiy holati, kayfiyati ham o'z ifodasini topgan. Bas shunday ekan, g'azalda hikoya-epik tasvir unsuri va ruhiy holat tasviri qorishib ketgan. Voqea tasviri oshiq-lirik qahramon tilidan keltiriladi. Ammo shu voqeaning sodir bo'lishi, oshiq-hikoya qilguvchining turli ruhiy holatni boshdan kechirishga asosiy sababchi bo'lgan ma'shuqa ko'rinmaydi, bevosita so'zlamaydi, harakat qilmaydi. Ma'shuqa harakati va holati faqat oshiq hikoyasi vositasidagina tasavvur etiladi. G'azalda ma'shuqaning an'anaviy – rasmiy g'azallarda ko'rinadigan "kiprik, ko'z, lab, soch, qad" va shunga o'xshash atributlari ham ko'zga tashlanmaydi, balki ularning hammasini o'zida mujassam etgan "jamoli olamoro"si va "yuz"i tilga olinadi, xolos. G'azalda uchinchi shaxs yoki timsol (raqib, sabo…) ko'rinmaydi, u tilga ham olingan emas, chunki bunga ehtiyoj ham yo'q.

G'azalning mavzusi "ishq-oshiq-ma'shuqa" tarzida ko'zga tashlansa-da, aslida u ko'pqirralidir. Bunday qirralardan biri majoziy "ishq-oshiq-ma'shuqa" bo'lsa, ikkinchisi haqiqiy "ishq-oshiq-ma'shuqa" dir. Bu holni g'azalning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi baytlarida kuzatish mumkin. Birinchi bayt-matla'da tasvirlangan ma'shuqaga tegishli bo'lsa, ikkinchi tomondan esa haqiqiy – Haq taologa nisbatan ham qo'llanilgan. Bu fikrni ikkinchi baytdagi tasvir ham qo'llab-quvvatlaydi. Zero unda yozilishicha, haqiqiy ma'shuq – Haq taoloning jamoli jilvasi – namoyon bo'lishi olamga g'ulg'ula soldi, go'yoki qiyomat qoyim bo'ldi. Mening ko'zlarim, - deb davom etadi hikoya qilguvchi oshiq-lirik qahramon, - ana shu barchani g'ulg'ulaga solgan jamol jilvasini ko'rmasa edi, koshki. Bu o'rinda shuni eslatish joizki, ikkinchi baytning birinchi misrasi oxirida qo'llangan so'zni (rustaxez) ikki xil yozish va talqin qilish mumkin: birinchi, "rastoxez"-g'ulg'ula, ikkinchisi, "rustaxez"-ko'karish, Yerda o'simlikning ko'karishi, unib chiqishi. Bas shunday ekan, unda majoziy ma'shuqaning (Yer go'zali, inson g'ozali) "jamoli jilva"si - g'ozalligining namoyon bo'lishi olamga g'ulg'ula solgan bo'lsa, Haq taolo "jamoli jilva"si esa Yer yuzida ko'karish, yasharihning boisi bo'ldi, ya'ni tabiatning hayoti boshlandi. Shu jihatdan uchinchi bayt ham ikki ma'noli bo'lib, unda, bir tomondan, majoziy ma'shuqa jamolini ko'rgan oshiq ko'nglida uning ishqi sho''lasi paydo bo'lib, bu sho''la ko'zlarining o'tlig', yoriq bo'lgani ifoda etilsa, ikkinchi tomondan esa, haqiqiy ishq – Haq taologa nisbatan bo'lgan ishqning komilligi tufayli oshiq ko'nglida Haq taolo jamoli sho''lasi tajalliy topib, ko'zlarida ana shu tajalliy sho''lasi aks etilganidan bahs yuritilgan ko'rinadi.

G'azalning beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi baytlarida majoziy ishq-oshiq-ma'shuqa kayfiyatining bayoni ustunlik qiladi. Chunki unda majoziy ma'shuqaning "firibomiz lutfi", "zulm"i va "bevafoligi"dan so'z boradiki, bu sifatlarni haqiqiy ishq – ma'shuqaga nisbatan ishlatib bo'lmaydi. Shuning bilan birga ko'ngulning ma'shuqaning bevafoligini anglagach, uning ishqini tark etishi ham majoziy ma'shuqaga nisbatan munosabatini bildiradi. Haqiqiy ishqni esa ko'ngul hech qachon tark eta olmaydi va bunga qurbi ham yetmaydi.

G'azalning oxirgi, yakunlovchi baytida:

Ey Navoiy, bevafodur yor, bas ne foyida,
Nechakim desang "agar" yoxud "magar" yo "koshki", -
deb keltirilgani ham aytilganlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Demak, g'azalning mavzusi ishq bo'lsa-da, uning ham majoziy va ham haqiqiy qirralari qalamga olingan. Shunday bo'lsa-da, haqiqiy-majoziy ishq tasviridan boshlangan g'azal oxirda majoziy ishq qirrasiga ko'proq urg'u berilgani bilan yakunlanadi.

G'azal aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) bahrida yozilib, u g'azal-turkiy guruhiga mansubdir, ya'ni ham rasmiy g'azal va ham xalq og'zaki ijodidagi turkiy qo'shiq xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Alisher Navoiy g'azalning matla'idan boshlab barcha baytlarida mumtoz she'riyatdagi ma'naviy, lafziy va shakliy san'atlardan mohirlik bilan foydalangan. Jumladan, g'azalning matla'ini ko'zdan kechirsak:

Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag'ay erding bari olamg'a g'avg'o koshki.

Baytda o'n bitta so'z ishlatilgan bo'lib, shundan uchtasi (koshki, olam, erding) ikki misrada ham takrorlanib kelgan, beshtasi esa (ochmag'ay, solmag'ay, jamol, bari, g'avg'o) bir martadan keltirilgan. Baytda ikki qofiya ("olamoro, g'avg'o" va "ochmag'ay, solmag'ay") va ikkita radif (koshki, erding) mavjud bo'lib, matla'ning zo'qofiyatayn va zo'radifayn bo'lishini ta'minlagan. Bunda shuni uqtirish lozimki, bu qofiya va radiflarning biri misralarning boshlanishida kelgan bo'lsa, ikkinchisi misralarning oxirida kelgan. Bunday hol kam uchraydigan hodisalardandir. Qizig'i shundaki, bayt avvalidagi qofiya – radif va oxiridagi radif oralig'ida mavjud bo'lgan "jamoli olamoro – bari olamg'a g'avg'o" iboralari asl maqsadni juda chiroyli va mo'jaz tarzda bayon etadi hamda saj' san'atini ham namoyon ettiradi. Shoir bu iborada ma'naviy tazodni ham maydonga keltirgan – bir tomondan, shuhrat, ikkinchi tomondan - g'avg'o. Vaholonki, "olamoro" olam ziynati g'avg'oning boisi bo'lmoqni emas, balki mantiqan havas va xursandchilikning boisi bo'lmoqni talab qiladi. Mana shu ma'naviy tazod oshiq holini, ruhiyasini hamda shoir aytmoqchi bo'lgan maqsadni badiiy tarzda ifoda etishga xizmat qilgan.

G'azalda badiiy san'atlardan sifatlash (jamoli olamoro, firibomiz lutf), mubolag'a-istiora (ko'zum o'tlug'), istiora (ishq o'ti), tashxis (ko'ngulning ishqni tark etishi), tashbeh (devona), ma'nodosh so'zlar takrori (agar, magar, koshki) va boshqalar nihoyatda o'rinli foydalanilgan. Shuni eslatish, joizki, Alisher Navoiy g'azalning oxirgi misrasini "nechakim desang "agar" yoxud "magar" yo "koshki" tarzida tugatgan. Ehtimolki, shundan ilhom olgan nomi va taxallusi bizga noma'lum shoir keyinchalik shunday chiroyli va hikmatga o'xshash baytni yaratgan bo'lishi mumkin:

"Agar"ni "magar"ga nikoh qilsalar,
Tug'ilgay bir o'gil oti – "koshki".
Faulun faulun faulun faul
Faulun faulun faulun faul.

Yuqorida qisqacha bo'lsa-da, ko'rib o'tganimiz xususiyatlar g'azalning o'sha davrda nihoyatda shuhrat qozonib, keyingi asrlarda ham ijodkorlarni maftun etganining boisi bo'lgan edi.

Ishq mavzusidagi yakpora g'azallardan yana biri bilan tanishaylik:

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dardu balosinmu deyin?
Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?
Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?
Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,
Birining qaydi yana birning adosinmu deyin?

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Moviy ko'nglak uza gulrang qabosinmu deyin?
Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javru jafosinmu deyin?
Ey Navoiy, dema qoshu ko'zining vasfini et,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?
(MAT, 4-tom, 350-bet)

Mazkur g'azal yetti baytdan iborat bo'lib, uning asosiy mavzusi-ish-oshiq-ma'shuqa bo'lsa-da, ammo u bu ko'pqirrali mavzuning bir qirrasiga – ma'shuqaning zohiriy siymosi (portreti) chizgilarini bayon etishga bag'ishlangan. Ana shu zohiriy chizgilardan ma'lum bo'ladiki, shoir tasvirlayotgan ma'shuqa – Yer g'ozali – insonning zohiriy (portret) chizgilaridir. Unda ma'shuqaning "qoshi, ko'zi, kirpiki (kiprigi), zulfi (sochi), labi, xoli, qad"lari hamda kiyimlari (ko'nglak-ko'ylak va uning ustidan kiyiladigan "qabolari) tasviri berilgan. Albatta, ma'shuqaga tegishli bo'lgan bu zohiriy belgilar va ularning sifatlari yaxlit tarzda olinganda kishi ko'zi o'ngida Sharq xotin-qizlarining go'zal bir surati namoyon bo'ladi: qoshlari yoy-kamondek, ko'zlari qaro, bu ko'zlarning qahrli-g'azabli ekanligi, qora kipriklarning zaharligi, zulfi (sochi)ning dom (tuzoq)ligi, la'li – lablarining so'zlaguvchi ekanligi, go'zal xoli, niholga o'xshash qadi, moviy ko'ylagi-yu gulrang qabosi…

Shunday bo'lsa-da, g'azalning birinchi misrasi va uning oxirda (g'azal maqtaida) yana aynan takrorlanishi (Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin) shundan guvohlik beradiki, Alisher Navoiyning asosiy diqqati ma'shuqaning qosh va ko'zlariga qaratilgan. Shundan-da, g'azalning birinchi va ikkinchi baytlari "qosh va ko'z" sifatlari tasviriga bag'ishlangan. Shuni ham yqtirish lozimki, shoir birinchi baytda avval "qosh" va so'ng "ko'z"ning shakliy (yoy-kamon) va rang bilan bog'li (qaro) sifatlarini bayon etgan bo'lsa, ikkinchi baytda "ko'z va kiprik"larning ruhiy holat bilan bog'li (qahri, zahri) sifatlarini tasvirlagan hamda tanosib san'atini ham (ko'z-kiprik) maydonga keltirgan, ya'ni ko'z ham qora, kipriklar ham qora va bu qoraliklarning oppoq yuzda (ruxsori safosi) yanada bo'rtib namoyon bo'lishi manzarasi. Shuning bilan birga bunda nafaqat tanosib, balki tazod (qora va oq) ham mahorat bilan ishlatilgan. Shoir "ko'z" tasvirida uning ikki sifatini – biri rangi bilan bog'li bo'lgan "qora"ligi, ikkinchisi esa ruhiy holat bilan bog'li bo'lgan "qahri"-oshiqqa nisbatan g'azabliligi, zolimligini ta'kidlaydi. Bunda ham ma'naviy tazod, ya'ni go'zallik (qaroligi) va xunuklik (qahrlilik)ning bir-biri bilan qarama-qarshiligi hamda bu qarama-qarshi sifatlarning ma'shuqaga yarashadigan g'ozalligi ko'zga tashlanadi. Yana bir go'zal tasvir ma'shuqaning kiprigi bilan bog'lidir. Shoir kiprikning zahridan gapiraymi der ekan, ihom san'atidan foydalanib, "zahar"ni o'z ma'nosidan ko'ra "qora, go'zal va nozu karashma" ma'nolarida qo'llagan. G'azalning to'rtinchi va beshinchi baytlarida "zulf-soch, la'l-lab, xol, qad, ko'nglak, qabo"haqida gap ketadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, 1, 2, 4, 5-baytlarda keltirilgan "qosh, ko'z, kirpik, ruxsor, zulf, lab va xol"lar ma'shuqaning yuzi bilan bog'li bo'lgan atributlar bo'lsa, 5-baytdagi "ko'nglak, qabo" shu baytning birinchi misrasidagi ma'shuqa "qadi"-qomati-tanasi bilan bog'li atributdir. Demak, shoir ma'shuqaning yuzi ham, qadi-qomati ham go'zalligini, ya'ni tabiiy tuzilishi hamda sun'iy atributlari (ko'nglak, qabo) ham bir-biridan qolishmaydigan, o'zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi-yaxlit holda go'zal ekanligini tasvirlaydi va bu yaxlitlik ma'shuqaning yaxlit go'zal zohiriy ko'rinishi-portretini yaqqol namoyish ettiradi. G'azalning yakuniy bayti-maqta'da ham bu fikr shoirning o'zi tomonidan e'tirof etiladi. Shunisi borki, Alisher Navoiy g'azalning avvalidan oxirigacha tajohil ul-orif san'atini ishlatgan, ya'ni u yor-ma'shuqaning zohiriy jihatdan nihoyatda go'zalligini biladi, ammo o'zini bilmaganga solib, ma'shuqaning go'zalligini qanday bayon etayin, bu go'zallikning qay biri haqida gapirayin, chunki uning har bir uzviyu kiyimi ham go'zallikning oliy darajadagi nishonasi, demoqchi:

Ey Navoiy, dema qoshu ko'zining vasfini et,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?

Shunday qilib, g'azal mavzu jihatidan yakpora bo'lib, ma'shuqaning zohiriy ko'rinishi-siymosini tasvirlashga bag'ishlangan. G'azalning tuzilishi, baytlarining o'rinlashuvi, qofiya, radiflari va boshqa shakliy xususiyatlari, ya'ni ularning yakpora mavzuni bayon etishdagi mavqei-xizmatlari haqida ham to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

G'azal aruzning "ramali musammani mahzuf" (foilotun foilotun foilotun foilun) bahrida yozilgan bo'lib, uning asosiy radifi "deyin" so'zidir. Shunisi borki, g'azaldagi maqta'dan boshqa barcha baytlarning birinchi misralarida saj' san'ati ishlatilganligi jihatidan ularda ikki qofiya va ikki radif kuzatiladi.

Masalan:

Birinchi baytning birinchi misrasi:

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin.

Ikkinchi baytning birinchi misrasi:

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin.

Bunday hol 3, 4, 5, 6-baytlarning birinchi misralarida ham takrorlanadi.

Yakuniy bayt – maqta'da esa bunday hol birinchi misrada emas, balki ikkinchi misrada ishlatilgan. Aslida esa bu misra' g'azal matlaidagi birinchi misraning aynan takroridir. Demak, Alisher Navoiy g'azalni qanday misra bilan boshlagan bo'lsa ("Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin"), shu misra' bilan tugatadi. Bu bilan go'yo g'azalning chegarasini, boshqacha qilib aytganda, shu misrada bayon etilgan mavzuning yetakcji ekanligi, boshqa baytlar esa ana shu ikki misra' (boshlanma va yakuniy) oralig'ida joylashgani hamda ana shu mavzuda ekanligini ta'kidlaganday bo'ladi. (Bunday hol Alisher Navoiyning "Yuzi ollida gul, nazzora qildim, xub emas oncha" (MAT, 6-tom, 23-bet) misrasi bilan boshlanadigan g'azalda ham o'ziga xos tarzda uchraydi. Bu ikki g'azalni solishtiring).

"Qoshi yosinmu" deb boshlanadigan g'azalda qofiya va radifning ishlatilishida boshqa g'azallarga nisbatan farqli tomonlar ham bor. Chunonchi, bu g'azalda, bir tomondan, rasmiy g'azallardagi qofiya va radifning (a-a, b-a…) keltirilishida umumiylik ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, boshqa g'azallarda kam uchraydigan hodisa, asosiy radif bo'lib kelgan "deyin" so'zining maqta'ning birinchi misrasidan boshqa hamma misra'larda, ya'ni agar g'azal 14 misradan iborat bo'lsa, shundan 13 tasida aynan takrorlanib kelishi kuzatiladi. Bundan tashqari baytlarning birinchi misralarida saj'ning qo'llanilgani tufayli ikkinchi misralardagi qofiyalar farq qilsa-da, ammo "radif-"deyin"dan oldingi so'zlarning ohangdosh bo'lib kelgani g'azalning shakliga husn bag'ishlagan, uning musiqaviyligini yanada kuchaytirgan hamda oshiqning ruhiy holati, kechirmalarini yorqin ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

1 – baytda: yosinmu deyin, qarosinmu deyin.

2 – baytda: qahrinmu deyin, zahrinmu deyin, safosinmu deyin.

3 – baytda: dardinmu deyin, nabardinmu deyin, davosinmu deyin.

4 – baytda: dominmu deyin, kalominmu deyin, adosinmu deyin.

5 – baytda: xolinmu deyin, niholinmu deyin, qabosinmu deyin.

6 – baytda: ranjinmu deyin, shikanjinmu deyin, jafosinmu deyin.

7 – baytda: yosinmu deyin, qarosinmu deyin.

G'azalning tuzilishi haqida gapirganda uning o'ziga xos yana bir tomonini ham eslatish joizdir. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki, g'azalning 1-2 – baytidan keyin bir mav'iza bayt (3-bayt) keltirilgan:

Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,

Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin.

Bu baytda g'azalning asosiy mavzusi – ma'shuqaning zohiriy qiyofasi tasvirining davomi emas, balki umuman "ishq, hajr va vasl" mavzusi, ya'ni umumlashma mavzudan bahs yuritilgan. Boshqacha

qilib aytganda, zohiran go'zal siymoning oshiqdagi botiniy iztiroblar boisi bo'lganligining umumlashma bayonidir. Bunday hol 4-5 – baytlardan keyin keltirilgan baytda (6-bayt) ham uchraydi:

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javru jafosinmu deyin.

Bu baytda yuqorida ko'rganimiz baytga (3-bayt) nisbatan mavzu doirasining yanada kengayishi kuzatiladi – agar avvalgi baytda (3-bayt) "ishq, hajr, vasl"ga oid umumlashma fikr ifoda etilgan bo'lsa, bu baytda (6-bayt) undan kengroq mavzu – "charx va dahr javru jafo"sidan bahs etiladi. Demak, bunda ruhiy holatdan kengroq bo'lgan ijtimoyi munosabatlar masalasi qalamga olingan. Shunday qilib, g'azalda majoziy ma'shuqaning zohiriy siymosi tasviridan "ishq, hajr, vasl" bilan bog'liq umumlashma mavzuga o'tiladi hamda "charx, dahr, jafo"siga oid fikr bayon etiladi. Bu bilan ma'shuqa va charx, dahrning yaxlitligi masalasiga ishora qilinib, ular bilan bog'li bo'lgan "dard"lar ham umumiy va yaxlit ekanligi uqtiriladi. Shunday qilib, bunda tasavvufiy mavzu olami sag'ir (inson) va olami kabir (charx, dahr)ning yaxlitligi masalasi ham nazarda tutilgan. G'azalning o'ziga xos ana shunday qurilma-tuzilashini chizmada quyidagicha ifodalash mumkin:



Chizmadan ma'lum bo'ladiki, "deyin" radifli bu g'azal "koshki" radifli g'azaldan tuzilish jihatidan o'ziga xosligi bilan ajralib tursa-da, ulardagi umumiylik esa mavzuning yakpora bayon etilishida ko'rinadi.

Demak, Alisher Navoiy bir mavzuda yozilgan g'azallarning har birini o'zgacha tarzda yaratgani tufayli ular bir-birining takrori yoki bir qolipda yozilgan asarlar bo'lmay, balki har biri o'ziga xos yangi badiiy asarlardir.

Adabiyot

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 1-6-tomlar.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2 tom.
3. B.Valixo'jayev. Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy she'riyati. Samarqand, 2000.

Tasavvufiy mavzudagi g'azallar

Alisher Navoiy g'azallarining mavzu doirasi keng ekanligi qayd qilingan edi. Shoir qaysi mavzudan so'z yuritmoqchi bo'lsa, o'sha mavzu va mazmunni ifodalash uchun g'azal shakli (qolipi)ni unga xizmat qildiradi. Natijada ular rasmiy g'azallarga shaklan o'xshasa-da, ammo mavzu, mazmun, timsol va badiiyat jihatidan rasmiy g'azallardan farq qiladi. Bunday hol shoirning ijtimoiy, axloqiy, falsafiy-tasavvufiy mavzulardagi g'azallariga ham daxldordir.

Alisher Navoiy g'azallarida tasavvufiy mavzu turli xilda-yakpora g'azallar, yakpora bo'lmagan g'azallar, ishq mavzusiga bag'ishlangan g'azallarda ham yoritilgan. Biz quyida ayrim yakpora g'azallarda bu mavzuning yoritilishiga oid mulohazalarni bayon etmoqchimiz.

Ma'lumki, tasavvuf islomiy sivilizatsiya hududidagi mintaqalarda keng tarqalgan falsafiy yo'nalish bo'lib, Alisher Navoiy yashagan davrda ham uning turli ko'rinishlari mavjud edi. Shundan-da, Alisher Navoiy ham bu falsafiy qarashning asoslarini yoshligidan o'rganib, keyinchalik uning tormoqlaridan biri bo'lmish naqshbandiya sulukini qabul qilgan edi. Bu sulukning nazariy aqidalari Alisher Navoiy yaratgan barcha asarlarda, jumladan she'riyatida ham o'zining badiiy ifodasini topdi. Bunday aqidalardan biri komil insonni shaklantirish bo'lib, uni amalga oshirish yo'llarini aniqlash ko'pchilikning, jumladan Alisher Navoiyning diqqatini o'ziga tortgan edi. Quyida keltirayotganimiz g'azal ham ana shu masalaga bag'ishlangan. Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" va so'ngra devonlar turkumidan iborat "Xazoyin ul-maoni"ning shu g'azal bilan bashlangani bejiz emasdek tuyuladi:

Ashraqat min aksi shams il-ka'si anvor ul-hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.
G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.
Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'on safol,
Jom o'lur getinamo, Jamshed ani ichgan gado.
Jomu may gar bo'yladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.
Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido.
Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar-
Chehrayi maqsud, mahv o'lg'ay ham ul dam moado.
Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Sen gumon qilg'ondin o'zga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma, bu mayxona ahlin, zohido.
Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidin,
"Ishrabu, yo ayyuh al-atshon" kelur har dam nido.
(MAT, 3-tom, 25-bet)

Keltirilgan g'azal "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiruvchi birinchi devon – "G'aroyib us-sig'ar"dagi birinchi g'azaldir. U to'qqiz baytdan iborat bo'lib, aruzning "ramali musammani mahzuf" (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) bahrida mulamma' san'ati ishlatilib (birinchi misra va maqta'dagi oxirgi misraning bir qismi arab tilida, qolganlari esa o'zbek tilida) yozilgan g'azaldir. Bu g'azal majoziy "ishq-oshiq-ma'shuqa" tasviriga bag'ishlangan g'azallardan mavzuning tasavvufiy ekanligi bilan farqlanib, unda haqiqiy ishq – komil inson muammolaridan falsafiy mushohada yuritiladi. Shuning uchun unda an'anaviy g'azallardagi ma'shuqa "qoshi, ko'zi, sochi…" tasviri ham yoki uning "bevafoligi", "zolimligi", "firibomiz" iltifotlari haqida ham so'z bormaydi; g'azalda an'anaviy timsollar ham (ma'shuqa, raqib…), shunga bog'li bo'lgan tasvir vositalari ham ko'rinmaydi. Mazkur g'azalda yangi timsollar va ular bilan bog'liq tasvir vositalari qo'llanilgan. G'azalda "jom, may, ko'ngul jomi, sing'on safol, chehrayi maqsud, vahdat mayi, azal soqiysi" kabi timsol va "kalit" so'z – ibora borki, ular tasvirlanayotgan mavzuning mohiyatini o'zlarida aks ettiradilar. G'azalda "jom va may" ihom san'atida qo'llanilib, ular zohiriy ma'nodagina emas, balki yana boshqa – botiniy ma'noda ham ishlatilganligini Alisher Navoiyning o'zlari ham alohida ta'kidlaydilar: "Sen gumon qilg'ondin o'zga jomu may mavjud erur". Bu savolga Alisher Navoiyning o'zlari butun g'azal davomida chiroyli javob beradilar. Buni anglash uchun g'azalning baytlarini ko'zdan kechiraylik:

Ashraqat min aksi shams il-ka'si anvor il-hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.

Birinchi misra' arabcha bo'lib, uning mazmuni quyidagicha: "Quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari porlab chiqdi" hamda (ikkinchi misra') "Yor aksini mayda ko'r, deb jomdan sado chiqdi". Bu bilan shoir nima demoqchi? Quyosh kosasining aksi va hidoyat nurlarining porlashini qanday tushinmoq darkor?

Bu savollarga javob "kalitlari"ni Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan na't g'azalning quyidagi baytidan topish mumkin:

Ravshandururki, mehr yuzingdin olur safo,
Yo'qsa, ne vajh ila qamar andin topar ziyo.
(MAT, 6-tom, 7-bet).

Baytda so'z Alloh taolo haqida bo'lib, u shunday ma'noni anglatadi: Ey Alloh, hammaga ma'lumki, Mehr (Quyosh) sendan poklik nurlarini oladi, agar shunday bo'lmasa, Oy (Qamar)ning yorig'ligi – nurlari qayerdan ham bo'lardi.

Bunday mazmunni "Badoye' ul-vasat" devoniga kiritilgan g'azalning quyidagi baytida ham kuzatish mumkin:

Quyosh yuziga boqardin nazar erur ojiz,
Yuzungdin etti magar aks zohir ul ko'zgu.
(MAT, 5-tom, 354-bet)

Shu g'azalning:

Magar tajalliyi husnungg'a mazhar o'ldi quyosh,
Ki zohir ayladi oncha bila yog'du, -

baytida ko'rilayotgan masalaga doir mulohaza ochiq-oydin ifoda etilgan.

Demak, birinchi misoldagi "quyosh kosasi aksi" iborasida quyoshning Alloh taolodan poklik nurlarini olishi va u nurlarning kosasi ko'zgusida aks ettirishi ma'nosi singdirilgan. Quyoshdan kelayotgan ana shu hidoyat - yo'lboshchilik qiluvchi ilohiy nurlarda esa yorning aksini (Alloh taoloning tajalliysini) ko'rmaqchi bo'lsang, uni mayda ko'r, deb jomdan nido (tovush) keldi. Bu bayt husni matla'

bo'lib, unda shoir butun g'azalda ifoda etmoqchi bo'lgan fikrning qaymog'ini bayon etgan hamda "jom va may"ning o'zga-botiniy-tasavvufiy ma'nosini ham ochib bergan. Boshqacha qilib aytganda, shoir aytmoqchiki, Alloh taoloning nurlari Quyosh kosasiga tushgach, ana shu kosada tajalliy topgan (jilolangan, ko'ringan) ilohiy nurlarni Quyosh butun olamga yoyadi. Bunda Quyosh tajalliygoh kosa bo'lib, unda jilolangan nurlarda Alloh taoloning buyukligi va g'ozalligini ko'rish mumkin. Bas shunday ekan, Quyosh taratayotgan ilohiy nurdan bahramand bo'lgan barcha mavjudot va maxluqotda Alloh taoloning g'ozalligi va buyukligini ko'rish hamda tasavvur etish mumkin. Shunday ekan, "yor aksin mayda ko'r" degan nido (tovush)ning ma'nosi oydinlashadi, ya'ni Alloh taoloning o'zi emas, balki uning barcha zotiy va sifotiy fazilatlari ilohiy nurlar tajalliysida namoyon bo'ladi. Buning mohiyatini esa hamma ham emas, balki undan ogohlargina, ya'ni komil insonlargina anglaydilar va bahramand bo'ladilar. Bunday darajaga erishishning sharti ikkinchi baytda bayon qilingan:

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Baytning ma'nosi: agar kishining ko'nglida Alloh taolo zikridan boshqa narsalar fikru xayoli, ya'ni mol-dunyoga hirs qo'ymoqlik, amalparastlik va hokazolar g'amining zangi-gardi, g'ubori to'plangan bo'lsa, ko'ngulni bunday zang-g'uborlardan tozalaguvchi asosiy omil bu – vahdat mayidir, ya'ni Alloh taoloni doimo zikr qilish va uning zotiy sifatlari nurlari bilan zanglarni ketkizishdir. Demak, insonning komilikka erishuvining asosiy omili Alloh taoloning yakka-yagonaligi (vahdati) va buyukligini (akbar) e'tirof etish bilan o'zligini tanishi, barcha olijanob fazilatlarni o'zida mujassam eta olishidadir.

Baytda "g'ayr naqshi", "ko'ngul jomi", "zangi g'am", "mayi vahdat" kabi iboralarning tasavvufiy mazmunni ifoda etish uchun ishlatilganligi, ulardagi o'xshatish, sifatlash, istiora va ihomlarning ham shu maqsadga bo'ysindirilgani e'tiborga loyiqdir. Bundagi "ko'ngul jomi" xususan diqqatga sazovordir. Bu bilan shoir avvalgi baytdagi fikrni, ya'ni koinotda Alloh taoloning tajalliygohi Quyosh kosasi bo'lsa, Yer kurrasida esa uning tajalliygohi inson ko'nglidir, demoqchi. Xuddi ana shu ma'noda "shams ul-ka'si" – Quyosh kosasi hamda "ko'ngul jomi" o'rtasidagi mantiqiy va ma'naviy o'xshashlik hamda bog'lanish maydonga keladi. Shunday qilib, Alloh taoloning koinotda Quyosh kosasida tajalliy qilishi tufayli Quyosh bu ilohiy nurlardan koinot va Yerni bahramand etsa, Alloh taoloning inson ko'ngli jomida tajalliy etishi esa yerdagi barcha maxluqotlarga insonning namuna va ibrat bo'lishi, ya'ni ilohiy ma'rifatni tarqatuvchi komil mavjudot ekanligi ta'kidlanadi. Demak, Quyosh va insonning vazifalari yoki mavqelari bir-biriga o'xshashdir. Shu jihatdan inson ham Quyoshdir. Bu fikr mashhur Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"sida shunday ifoda etilgan:

Chun nameoyand injo, ki manam,
K-andar in izz oftobi rushanam.
Mashriqi xurshed burji qirgun,
Oftobi mo zi mashriqho burun.
Mashriqi o' nisbati zarroti o',
Na baromad, na furo' shud zoti o'.
Moki vopasmondi zarroti vayem
Dar du olam oftobe befayem.[1]

Mazmuni: Men ko'pgina masalalarni hal etishda yoriq quyosh bo'lsamda, odamlar mening qoshimga negadir kelmaydilar. Quyoshning mashriqi (chiqadigan joyi) qizilrang burj bo'lsa, bizning Quyoshimiz mashriqdan (chiqadigan joydan) tashqaridadir. Bu Quyosh (Alloh)ning mashriqi uning zarralari bilan bog'liq bo'lib, uning zotining na chiqishi, na botishi bor, chunki u abadiy va azaliydir. Biz uning arzimas zarralari ekanmiz, demakki, ikki olamning ham soyasiz Quyoshimiz. Ko'rinadiki, insonning buyuk maqomini belgilashda Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy kabi ikki buyuk dahoning

[1] Farhang, 1991, № 8, 6-bet

fikrlari bir-biriga uyg'undir. Alisher Navoiyning so'z yuritayotganimiz g'azalining uchinchi baytida ikkinchi baytda keltirilgan "vahdat mayi"ning mo'jizalaridan so'z yuritilgan:

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'on safol,

Jom o'lur geti namo, Jamshed ani ichgan gado.

Baytdagi "sing'on safol" hazrat Muhammad (s.a.v.)ning "al-faqru faxri" (faqr-faxrim) hadislarini o'zining yashash-tirikligi mazmuni deb qabul qilgan, "ko'ngli jomi"dagi har qanday zang-g'uborni ketkizib, komillikka erishgan insonning ashyosi (mol-dunyosi, bayigarligi) bo'lib, bu ashyo-sing'on safol bunday inson uchun jahonni o'zida ko'rsatadigan getinamo – jahonnamodir, ya'ni "sing'on safol" egasida jahondagi barcha narsalarni ochiq-oydin ko'ra olish, idrok etish qobiliyati maydonga keladi. Shundan-da, ana shu "sing'on safol"dagi may (vahdat mayi, ilohiy tajalliy nurlari)dan bahramand bo'lgan gado – afsonaviy Jamshed martabasiga erishadi va komil inson darajasiga yetgan ulug' zot sanaladi.

Baytda talmeh (Jamshed-jom), tavsif (sing'on safol), tashbeh (jom-getinamo, gado-Jamshed), ihom (may) kabi badiiy tasvir vositalari mahorat bilan ishlatilgan.

To'rtinchi baytda ana shunday sifatlarga ega bo'lgan "jomu may" uchun jonu jahonni bag'ishlasa ham kamlik qilajagi uqtirilgan.

Demak, g'azalning 1-3 – baytlarida "jomu may" sifatlari bayon etilgan bo'lsa, to'rtinchisida ularning buyuk ahamiyati umumlashtirilgan.

Beshinchi baytdan boshlab, ana shunday fazilatli "jomu may"dan bahramand bo'lish natijalaridan so'z yuritiladi. Jumladan:

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,

Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido, -

ya'ni, ey mug'bacha, dayr (mayxona)ga kelgan hush ahlining rasvo bo'lishini istab may jomini taklif etmoqchi bo'lsang, bu ishni mendan boshlab qo'yaqol. Albatta, baytning ham zohiriy va ham botiniy-tasavvufiy ma'nolari bor. Botiniy mazmuni bo'yicha bunda "mug'bacha" vahdat mayidan bahramand bo'lishga rahnamolik qilguchi peshvo, "dayr" esa uning makoni-manzilidir. Bas shunday ekan, solik – men ana shu peshvo-pirdan to'g'ri yo'lni o'rganishga birinchilar qatorida tayyor ekanligini bildirmoqda. Solik – menning bu ishga birinchilardan bo'lib shoshilganining sababi oltinchi baytda ochiq-oydin bayon qilingan:

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar,

Chehrayi maqsud, mahv o'lg'ay ham ul dam moado, -

ya'ni agar vahdat mayi-ilohiy ma'rifat nurlari ko'ngul jomida jilvagar bo'lsa, unda chehrayi maqsud – istalgan chehra-Alloh taoloning tajalliy nurlari ko'rinadi va natijada ko'ngil jomidagi boshqa (g'ayr naqshi, moado) narsalar mahv bo'ladi, yuqoladi, unda faqat "chehrayi maqsud" qoladi, xolos. Bu holatning natijasi esa yettinchi baytda bayon qilingan:

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,

Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Ya'ni jom va may bir-biri bilan qorishib, yaxlit holatga keladi. Bunda shoir solik-menning o'zligi bilan ilohiy nurlarning qo'shiluvi yoki ilohiy nur-ruhning jom-tanada joylashib, yaxlitlikni maydonga keltirishi va shundan "sen" va "men"ning birlashuvi – komillikning eng yuqori darajasi haqidagi tasavvufiy fikrni ifoda etmoqda. Shundan-da, hatto "jom" va "may" so'zlari ham shaklan birlashib, bir ismni maydonga keltiradi. Haqiqatan ham arab yozuvida "jom" ( ) va "may" ( ) so'zlari birlashtirilsa, " " – " " – "Jommiy - Jomiy" so'zi vujudga keladi. Bu bilan Alisher Navoiy ana shu komil insonlik fazilatlarining zamondoshi, ustozi Nuriddin Abdurahmon Jomiy siymosida mujassam ekanligini uqtirmoqda hamda bu sohada Abdurahmon Jomiy hamisha namuna bo'lib qolishini eslatmoqda. Bu nihoyatda muhim xulosadir. Chunki u tasavvufiy mulohazalar faqat nazariy, mavhum fikrlar emasligi, balki uning amaliy, hayotga tatbiq etilgani va natijasi (Abdurahmon Jomiy timsolida)

esa Alisher Navoiy yashagan davrda yaqqol namoyon bo'lgani juda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, yettinchi bayt g'azalda bayon etilgan fikrning eng yuqori cho'qqisi – natijasini ifoda etganligi bilan muhim mavqega ega.

Keyingi – sakkizinchi baytda "jom va may" kabi muqaddas tasavvufiy so'zlarning botiniy ma'nolarini bilmasdan ularni zohiriy ma'nolaridan kelib chiqib inkor qiluvchilarni masalaning asl mohiyatini chuqur tushinishga da'vat etadi. Nihoyat yakuniy-to'qqizinchi baytda esa shoir ta'bir badiiy san'atidan foydalanib, Alloh taolo tomonidan nozil qilingan "ishraby yo ayyuh al-atshon" (vahdat mayidan ichgil, ey tashnalab) oyatini dalil keltirib, o'zini ham va boshqalarni ham bundan bahramand bo'lib, komil inson bo'lish uchun intilishga chorlaydi.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiyning "Ashraqat" so'zi bilan boshlanadigan g'azali tasavvufiy mavzudagi yakpora g'azal bo'lib, u rasmiy oshiqona g'azallar shaklida bo'lsa-da, ammo mohiyatan yangi bir adabiy asar hisoblanadi. Unda falsafiy mushohada yetakchi o'rinni egallab, Alisher Navoiyning hayot mazmuni, insoniylik va komil inson muammosiga doir qarashlari o'z aksini topgan. Bunday g'azallar "Xazoyin ul-maoni"da ko'plab uchraydi.

Adabiyot

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-6 tomlar.
2. Jaloliddin Balxiy-Rumiy. Masnaviyi ma'navi. "Farhang", 1991, № 8.
3. N.Komilov. Tasavvuf. Toshkent, 1994.
4. R.Vohidov. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro, 1994.

ZAMONA HAQIDA VA ZAMONA AHLIDAN SHIKOYAT MAVZUSIDAGI G'AZALLAR

Alisher Navoiy she'riyati, jumladan g'azallarida zamonaning ijtimoyi-siyosiy holatidan so'z yuritish, bu sohaga oid o'z mulohazalarini bayon etish kayfiyati ham kuzatiladi. Jumladan:

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.
(MAT, 3-tom, 252-bet)

Bunda asosiy diqqat ko'ngulning yordan ayru-judo bo'lmog'i mumkin emas, ya'ni ko'ngul mulkining joni-sultoni yordir, degan fikrga qaratilgan bo'lsada, ammo shoir bu fikrni kuchaytirish maqsadida ijtimoiy hayotdagi hodisaga – mamlakatning sultonsiz bo'lishi mumkin emasligi, ya'ni sulton mamlakatning joni ekanligi masalasiga murojaat etadi. Bu bilan Alisher Navoiy o'zining mamlakat va unda shohning mavqe'i to'g'risidagi ijtimoyi qarashini ifoda etadi. Shuning bilan birga Alisher Navoiy sulton-shohning qanday fazilat sohibi bo'lmog'i lozimligi masalasiga doir mulohazasini shunday bayon qiladi:

Vasl ila qilg'il buzuq ko'nglum ilojinkim, qilur
Shoh adl etmak bila vayronalar ta'mirini.
(MAT, 5-tom, 418-bet).

Bu baytda qo'llanilgan tasvir usuli yuqorida keltirilgan baytdagiga o'xshash bo'lib, unda shohning asosiy fazilati adolatli bo'lishi lozimligiga ishora qilinmoqda, chunki shohning adolatni asosiy mezon qilib olishi vayronalarning (bu keng ma'noda) obod bo'lishining bosh omili sifatida talqin qilinmoqda. Ko'rinadiki, Alisher Navoiy mamlakatda shohning bo'lishi lozimligini, uning boshqaruv faoliyati asosini esa adolat va adolatlilik tashkil etmog'i darkorligini haqli ravishda ta'kidlamoqda.

Alisher Navoiy g'azallarida shohlar atrofida-saroyida dono vazir va amaldorlar bo'lishi lozimligi, uning adolatli boshqaruvini tashkil etishda, amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi masalasi ham judo nozik tarzda ifoda etilgan. Jumladan:

Shoh yonin farzin kibi kajlar maqom etmish ne tong,
Rostravlar arsadin gar tutsalar ruxdek qiroq.
(MAT, 3-tom, 258-bet).

Bunda so'z shohmot taxtasida shoh, farzin va rux kabi donalarning o'rni haqida borganday tuyuladi. Ammo asosiy maqsad esa ijtimoyi hayotdagi shoh, uning vaziri a'zami (farzin) va amaldorlari (rux)ning sifatlarini bayon etishdan iboratdir. Shuning uchun farzinga "kaj", ruxga esa "rostravlar" sifatlari berilgan. Bu bilan Alisher Navoiy shohning yonida "kajravlar" – egrilar, firibgarlar bo'lsalar, ular "rostravlar", ya'ni adolatli, imonli kishilarni shohga yaqinlashtirmaydilar, natijada "rostravlar", xuddi shohmot taxtasining bir chetida ruxning o'rin olganiday, shohdan uzoqlashadilar. Buning natijasida esa mamlakatni boshqarishda "farzin"lar yetakchilik qilgach, adolatsizlik, zolimlik, firibgarlik avj oladi. Demak, Alisher Navoiy bu bilan shohlarni ogohlantirmoqda va bunday holga yo'l qo'maslikka da'vat etmoqda. Demak, yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinadiki, Alisher Navoiy g'azallarida boshqa ko'pgina mavzular bilan birga ijtimoiy hayot, shoh va shohlik boshqaruvi masalariga oid ijtimoiy qarashlarini ham nihoyat mo'jaz tarzda ifoda etgan.

Shuning bilan birga shoir qiziq bir hodisaga ham diqqatni qaratgan, y ham bo'lsa-shoh va ishq-oshiqlikning masalasidir. Alisher Navoiyning tasvirlashicha, shoh va shohlikning ishq va oshiqlikka aloqasi yo'q, bular ikki bir biriga qarama-qarshi sifatlardir:

Ishq aro dushvordur bo'lmoq kishi hamdardi shoh,
Chun de olmas dardini bir yil yugursa dodxoh.
Shoh dodimg'a netib yetsunki mulki ishq aro,
Qadri oliy shoh ila tengdur gadoyi xoki roh.
Shoh mendin ishq aro ojizroq o'lsa tong emas
Kim, balokashlik mening xo'yimdur, aning izzu joh.
Shohliqning daxli yo'q ishqu muhabbat ko'yida
Kim kerak anda sarig' yuz, la'lgun ashk, o'tlug' oh.
Shoh kim, matlubig'a qulluq buyurgay ishq emas,
Kimki, oshiqdur anga zoru zabunlug'dur guvoh.
Sarv ila xoshok agar gul oshiqidur farqi bor,
Sarvg'a to o't tutashqay, kul bo'lur yuz ming giyoh.
Ey Navoiy, sidq ila bo'lg'il gado ishq ichrakim,
Taxtu tojin bersa, bu davlatni topmas podshoh.
(MAT, 3-tom, 432-bet)

Alisher Navoiy mazkur g'azalida ifoda etilgan mavzuni har kim har xil sharhlashi, talqin qilishi mumkin. Bizningcha, Alisher Navoiy bunda eng olijanob fazilat bo'lmish ishqu muhabbatdan, uning sohibi bo'lgan oshiqning esa "balokash", "sarig' yuz", "la'lgun ashk", "o'tlug' oh", "zoru zabunlig'" sifatlariga ega bo'lmog'i shartligidan so'z yuritmoqdaki, bunday sifatlar hamma oshiqlarga ham muyassar bo'lavermaydi. Bunday fazilatlarni esa boyliklar, taxtu tojlar evaziga ham qo'lga kiritish mumkin emasligi g'azalning yakunlovchi bayti-maqta'ida nihoyatda chiroyli va aniq-ravshan bayon etilgan. Alisher Navoiyning zamona va uning ahli haqidagi mulohazalari riyokor, firibgar toifalar, jumladan aslida din va uning mohiyatini bilmovchi, ammo firibgarlik qiluvchi ayrim "voiz", "shayx"lar haqida ham g'azallarida bayon etilgan. Chunki bunday toifadagi ayrim "voiz" va "shayx"lar muqaddas din va uning imonli muxlislariga xiyonat qilguvchilardir, deb tushunadi shoir. Zero "Nizomiddin" sharafli laqabiga ega bo'lgan Alisher Navoiy dinning muqaddasligi uchun, uning hayotbaxshligi uchun umri davomida fa'oliyat ko'rsatgan siymolardandir.

Alisher Navoiy g'azallarida o'z hayotining ma'lum davrlarida boshidan kechirgan hodisalar sababli zamona va uning ahlidan, qadriga yetmaganlardan shikoyat qilish ohanglari ham tez-tez uchrab turadi. Bunday ohanglar g'azal shaklida bo'lganidan unda "ishq-ma'shuqa" ham tilga olinadi va shu ko'lamda (fonda) yuqorida eslatilgan ohanglar bayon etiladi. Fikrning isboti sifatida quyidagi g'azalni ko'zdan kechirish mumkin:

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim,
Ko'rguzub yuz mehr, ming dardu balosin ko'rmadim.
Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig'a,
Har tarafdin yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim,
Kimga ko'nglum ayladi mehru muhabbat foshkim,
Har vafog'a yuz jafo oning jazosin ko'rmadim.
Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig'a,
G'ayr sori xulqu lutfi jonfizosin ko'rmadim.
Kimga soldim ko'z qarovu oqini ishq ichrakim,
Qon aro pinhon ko'zum oqu qarosin ko'rmadim.
Sen vafo husn ahlidin qilma tavaqqu', ey rafiq,
Kim, men ushbu xaylning husni vafosin ko'rmadim.
Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida –
Kim, bu ishda dayr pirining rizosin ko'rmadim.
(MAT, 5-tom, 307-bet).

"Xazoyin ul-maoni"ning "Badoye' ul-vasat" devoniga kiritilgan bu g'azal yetti baytdan iborat bo'lib, ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan. Uning radifi "ko'rmadim" bo'lib, bu so'z 1-4 – baytlarda "inkor-tasdiq" ma'nolarida kelgan bo'lsa, qolgan boshqa baytlarda "inkor" ma'nosida, ya'ni o'z ma'nosida ishlatilgan.

"Ko'rmadim" radifi g'azal baytlarini o'zaro bog'lash hamda ifoda etilayotgan mazmunning izchil davom ettirishning omili bo'lgan, ya'ni g'azalning yakpora-yaxlit bo'lishiga xizmat qilgan. G'azalning yakpora bo'lishiga xizmat qildirilgan unsurlardan yana biri 1-5 – baytlarning "kimga" so'zi bilan boshlanishidir. Bu takrir ham baytlarning o'zaro bog'lanishini, fikrni izchillik bilan bayon etilishini ta'minlashga o'z hissasini qo'shgan. Aytilgan mulohazalar yakporalikning shakliy-zohiriy tomonlaridir. G'azalning zamona ahlidan shikoyatdan iborat bo'lgan mavzusi esa uning mazmuniy, ma'naviy yakporaligi va yaxlitligini maydonga keltirgan. G'azalning asosiy mavzusi esa "vafo qilib, uning evaziga sonsiz jafo tortganlik"ni bayon etishdir. Shu maqsadda g'azalning qarib har bir misrasida, bir tomondan, "vafo, mehr" so'zlari takrorlansa, ikkinchi tomondan, uning tazodi bo'lmish "jafo, dardu balo, jazo" so'zlari keltiriladi. Qizig'i shundaki, birinchi guruhga mansub so'zlar ifoda etuvchi mazmunga ikkinchi guruhga mansub so'zlarning mazmuni ustunlik qiladi, ya'ni kimga bir vafo qilingan bo'lsa, undan yuz jafo ko'radi; kimga yuz karra mehribonlik ko'rsatilgan bo'lsa, evaziga ming dardu balo ko'radi va, hattoki, bu tig'i jafolarning soni yuz tumanga (bir millionga) ko'payadi. To'g'ri, shoir bunda mubolag'ani ishlatgan, ishlatganda ham o'rinli ishlatgan. Chunki bu mubolag'a shoir aytmoqchi bo'lgan fikr va ifoda etmoqchi bo'lgan ruhiy holatni to'la-to'kis aks ettirishga xizmat qiladi.

G'azalning asosiy qahramoni mulohaza yurituvchi "men"dir. Ana shu "men"ning hayotiy tajribalar ustida mulohaza yuritishi, o'z-o'ziga murojaat etishi-savol berish shaklida bayon etilgan. Shunisi ham borki, g'azalda ma'lum darajada hasbi hollik xususiyati ham mavjud. Ammo bu xususiyat umumlashgan va badiiylashgan bo'lib, unda yaxshilik va yomonlikning o'zaro munosabati va natijasi hayotdagi notekisliklar, adolatsizliklar o'z ifodasini topgan.

Xuddi shu mavzu:

Qon yutib umre jahon ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.
Kimgakim, jonim fido aylab sog'indim yor erur,

Ermas erdi yorlig'da chun vafodor istadim, -

(MAT, 4-tom, 316-bet)

misralari bilan boshlanadigan g'azalda ham davom ettirilgan. G'azal maqta'ida esa umidsizlik, yakkalanib qolganlik ruhi ancha kuchli:

Ey Navoiy, chun rafiqe topmadim, bu g'ussadin,

O'zni bekaslik balosig'a giriftor istadim.

Ma'lumki, Alisher Navoiy she'riyatida hayotdo'stlik, insondo'stlik kayfiyatlari va ruhi yetakchilik qiladi. Shunday bo'lsa-da, yuqorida keltirilgan g'azalning ruhi undan farq qiladi. Bu hol bejiz emas, chunki Alisher Navoiyning shu g'azalda e'tirof etganidek:

Bilmadim, olam elida yo'qturur mutlaq vafo

Vahki umre ulcha yo'qtur sog'inib bor istadim.

Ulki topilmas bashar jinsida, vah, g'aflat ko'ro'ng,

Kim pari xaylida men devonayi zor istadim.

Shunday qilib, zamona ahlidan, ularda vafo va vafodorlikdan darak bo'lmaganidan shikoyat qilish mavzusidagi yakpora g'azallar ham an'anaviy shakl (g'azal)da yangicha mazmunni ifodalashga bo'ysindirilgan asarlardir. Shuning bilan bir qatorda shikoyat mavzusida yozilgan g'azallarda faqat zamona ahlidan emas, balki "oromijon, dilsiton" mahbublarni topa olmaslikdan shikoyat qilish ham ko'zga tashlanadi. Bunday g'azallarning mavzu doirasi ma'lum darajada torayadi, aniqroq bo'ladi. Bu holni, jumladan, quyidagi matla' bilan boshlanadigan g'azalda uchratish mumkin:

Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

(MAT, 3-tom, 326-bet)

"Xazoyin ul-maoni" tarkibidagi g'azallarda bunday sifatlarga ega bo'lganlari esa anchaginadir.

Adabiyot.

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-6 – tomlar.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom.

G'azallarda har xil mavzularning ifodalanishi

1. Hasbi hol. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritgan g'azallarida boshqa mavzular qatorida o'z shaxsiy hayotidagi ayrim voqealarning badiiy tasviri ham ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda biz uning sarig' kasali, ko'z og'rigi bilan xastalanganligi, tishlarining to'kilgani, ko'zilarining xiralashganiga oid ishoralar mavjud bo'lgan g'azallarni nazarda tutmoqdamiz. Jumladan, "Tishlarimdin ikki dandonaki charx ayladi kam" (MAT, 4-tom, 305-bet) misrasi bilan boshlanadigan hamda:

Orazing mushtoqidur bu ko'zki, bo'lmish dardmand,

Garchi bordur dardlig' ko'zga yorug'liqtin gazand, -

(MAT, 3-tom, 115-116 - betlar) bayti bilan boshlanadigan g'azallar aytilganlarga misol bo'la oladi.

Alisher Navoiyning "Tishlarimdin" deb boshlanadigan g'azali keksalik davrining mahsuli bo'lib, unda ikkita tishining to'kilganidan so'z yuritilgan. G'azalda shoirning oddiy inson sifatidagi kechinmalari o'z ifodasini topgan: tishlarining to'kilishini, ya'ni tish o'rnining bo'shab qolishi bu – ajalning kirishiyu jonning chiqishga yo'ldir, tarzida izohlaydi. Buning ustiga:

Yo'qki tish sini sitam bo'ldiyu bas, ko'zda dog'i

Qolmadi nuri ani dog'i degil ayni adam, -

deb shikoyat qiladi.

Ikkinchi g'azalda esa ko'z og'rig'idan chekkan iztiroblari o'z ifodasini topgan. Shunisi muhimki, shoir ko'zining og'riganini tasvirlar ekan, uning qizargani, doru qo'yganda kuydirgani, ko'zlarini bog'lab qo'yganini ("bog'lamishdur chashmband") hayotiy va ishonarli tarzda qalamga olgan. Bunday tasvirlardan Alisher Navoiyning o'sha jarayondagi kayfiyati, ruhiy kechinmalarini anglash qiyin emas.

2. Tabiat manzaralari. Alisher Navoiy g'azallarida tabiat manzaralari, gullar, qushlar, daraxtlarning turli xillari (lola, savsan, gul, bulbul, to'ti, sarv…) tasviri har xil maqsadlarni ifodalashga xizmat qildirilgan. Jumladan, quyidagi misralarda chamanzorning tasviri nihoyatda kuchli hayajon, shodlik va xurramlik kayfiyati bilan tasvirlangan:

Vahki, chamandin yana esti shamol o'zgacha,
Har dam o'lur atridin ko'ngluma hol o'zgacha.
Bulbulu qumri chekib lahnu navo o'zga nav'
Ko'rguzadur sarvu gul g'anju dalol o'zgacha.
Savsan o'lub sarbaland, g'uncha bo'lib no'shxand
Elga alardin yetib daf'i malol o'zgacha.
Sunbuli purtob ham, lolayi serob ham,
Dud ila o'tdin bo'lub shibhu misol o'zgacha.
(MAT, 6-tom, 372-bet)

Bu tasvir bahor fasli, unda tabiatning uyg'onishi, ko'katlarning ko'karishi, turli qushlarning xonishi tufayli shoirda uyg'ongan shodlik va bu go'zallikdan hayajonga tushishidan bir lavhadir, xolos. G'azalda ifodalangan shodlik va o'ynoqi ruh shunga muvofiq bahrda-aruzning munsarehi musammani makshufida (muftailun foilun, muftailun foilun) o'z ifodasini topgan. G'azal ana shu bahr ohangiga muvofiq tarzda o'qilsa, uning o'ynoqiligi, zavq bag'ishlaguvchiligi yanada yaqqolroq namoyon bo'lib, eshituvchi zavqlanganidan birdaniga raqsga tushib ketganini ham bilmay qoladi. Bunda shoirning mazmun va shaklning o'zaro bog'liliga qanchalik e'tibor qilgani ham bilinadi. Misralarda badiiy tasvir unsurlaridan (o'xshatish, sifatlash, tanosib…) foydalanishda ham shoir katta mahorat ko'rsatgan. Alisher Navoiy g'azalda tabiatning maftunkorligini tasvirlash bilan insonlarni hayot va tabiat go'zallagidan bahramand bo'lib, hayotdo'st bo'lish, quvnoq yashah hamda ularni avaylashga da'vat etadi.

Yana bir misolga murojaat etsak:

Muvofiq kiydilar bo'lmish magar Navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil'at, mening sarvi ravonim ham
Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,
Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam.
(MAT, 6-tom, 286-287 - betlar)

Mazkur baytlar bilan boshlanadigan g'azalda bahor ayyomining boshlanishi - Navro'zning tasviri berilgan. Ammo bu tasvir avval keltirganimiz misoldan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki, bunda Navro'zda tabiatning yashil kiyim kiyishi bilan ana shu fasl munosabati bilan qayd qilinadigan bayramga mahbubaning ham yashil kiyim kiyib chiqqani tasviri qorishadi. Natijada Navro'zda tabiatning jonlanish holati insonlarning ham kayfiyatiga ta'sir etishi ularning ham "yasharishi"ga bois bo'ladi. Bu fikrni g'azalning "Muvofiq kiydilar" iborasi bilan boshlanishi ham qo'llab-quvvatlaydi. Demak, bunda tabiat va insonning yaxlitligi masalasiga ishora qilinmoqda. Shuning uchun g'azalda tabiatdagi sarv (daraxt) va inson go'zali – "sarvi ravon" tasviri yetakchi mavqe'ni egallab, inson go'zali-"sarvi ravon" (yuruvchi, harakat qiluvchi sarv)ning afzalliklari alohida ta'kidlanadi. G'azal aruzning hazaji musammani solim (mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun) bahrida yozilgan bo'lib, uni o'qishda vazminlik va tamkin yetakchilik qiladi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy g'azallarida tabiatning turli holati o'ziga xos uslubda tasvirlanadi. Bu tasvirlar insonni o'rab olgan tabiiy muhitning go'zalligini tasavvur ettirishda, undan

zavqlanish va, shuning bilan birga, uni ardoqlash, avaylashga da'vat qilishga qaratilganligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

3. Pand-nasihat. Alisher Navoiy g'azallarining ayrim baytlarida turli mavzularga oid pand-nasihatlar ham uchraydi. Bunday baytlar yoshlar tarbiyasi, ularda insoniylik va oliy janoblik kabi fazilatlarni shaklantirishda katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan ulardan ayrim namunalarni keltirish maqsadga muvofiq ko'rindi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim: Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.
(MAT, 5-tom, 431-bet)

Erur chun olam ichra joh foniy, yaxshi ot boqiy,
Bas el komin ravon ayla, o'zungni komron ko'rgach.
(MAT, 3-tom, 97-bet)

Tikti pand ignasidin dahr eli ko'nglum yarasin,
Xalq neshini bu ma'ni bila dildo'z dedim.
(MAT, 5-tom, 309-bet)

Ulug'lardin nasib istar esang, kasbi kamol etkim,
Nedinkim, anbiyog'a ilmliq inson erur voris.
(MAT, 6-tom, 69-bet)

Lutf ayla qarilarg'a, desangki uzun yashay
Kim, qarimas ayon qilibon yuzga chin yigit.
(MAT, 6-tom, 61-bet)

Ey Navoiy, ishq sirrin hech mahramg'a dema,
Kim buning ham mahrami bo'lg'ay, aning ham mahrami.
(MAT, 4-tom, 460-bet)

Ma'rifat naxlidin ul orif hamono topti bar
Kim tafakkur birla fahmi moarafnok ayladi.
(MAT, 5-tom, 432-bet)

Jahonda faqr kasb et, mayl ko'p qilma g'ino sari,
Ki mundin oz yetibdur orzu farzona andin ko'p
(MAT. 6-tom, 52-bet)

Kamol kasbi qilur bo'lsang, ozmundin o't,
Gar istifoda g'araz o'lsa, imtihondin kech.
(MAT, 6-tom, 73-bet)

Qarig'a tavbayu toat kerak shior o'lsa,
O'zin yigit yasasa, aylar o'ziga to'hmat.
Yigitligingda agar toat aylasang sen, sen
Qariding ersa, ne qilg'ungki, qilmag'ung toat
(MAT, 6-tom, 54-bet)

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy g'azallari tarkibidagi baytlarda inson ma'naviyatini shaklantirishga xizmat qiladigan turli-tuman mavzulardagi pand-nasihatlar ham mavjud bo'lib, ular g'azallar mavzu doirasining naqadar keng ekanligini ham yana bir karra namoyish etadi.

Shunday qilib, Alisher Nvoiy "Xazoyin ul-maoni"si tarkibiga kiritilgan g'azallar ham mavzu, ham timsol (obraz)lari bilan ko'pqirrali bo'lish bilan birga badiiyat jihatidan ham, shoirning o'zi qayd qilganiday "ranginu ravon" dirlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Alisher Navoiyning pand-nasihatlari bayon etilgan qaysi baytlarni bilasiz? (g'azallaridan)
2. G'azallarda tabiat manzaralari qanday tasvirlangan?

3. Shoir hasbi holiga doir g'azallar ham uchraydi-mi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar

1. "Xazoyin ul-maoni"dagi tabiat tasviriga (bahor, qish…) bag'ishlangan g'azallarni mutolaa qilib, talqin qiling.
2. Alisher Navoiyning g'azallaridagi pand-nasihatlardan beshtasini yodlang.

Adabiyot

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-6 – tomlar.
2. A.Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, "O'qituvchi", 1993.
3. A.Abdug'afurov. Misralar jozibasi. "Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari" (maqolalar to'plami). Toshkent, "Fan", 1993, 26-51 – betlar.
4. N.Jumayev. G'azalda g'oya va badiiy mahorat mutanosibligi. Ko'rs maqolalar to'plami, 51-67 – betlar.

BOSHQA JANRLARDAGI SHE'RLAR

1. Ruboiy. "Xazoyin ul-maoni" tarkibida 133 ruboiy bo'lib, ularning hammasi "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan. 'Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiruvchi boshqa devonlarda ruboiylar uchramaydi. Bu hol ruboiy Alisher Navoiyning faqat yoshlik davri mahsuli ekan-da, degan xayolga ham olib kelishi mumkin. Ammo aslida bunday emas, chunki Alisher Navoiy butun umri davomida ruboiy yozgan. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" devonlari turkumi uchun yozilgan debochada 30 ruboiyning, "Vaqfiya", "Munshaot", "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlarida esa ko'plab ruboiylarning mavjudligi bu fikrni tasdiqlaydi. Bas shunday ekan, Alisher Navoiy yozgan ruboiylar 133 tagina emas, balki undan uch-to'rt marta ko'proqdir.

Biz quyida asosan "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibidagi hamda "Xazoyin ul-maoni" uchun yozilgan debochadagi ruboiylar haqida ayrim mulohazalarni bayon qilmoqchimiz.

"G'aroyib us-sig'ar"dagi 133 ruboiyning ko'pchiligi "a-a-a-a" tarzida qofiyalanib, radiflarga ham egadir. Ularning ayrimlari "a-a-b-a" tarzida ham qofiyalanadi.

"G'aroyib us-sig'ar"dagi ruboiylar hamd va na't mazmunidagi ruboiylar bilan boshlanib, boshqalari falsafiy, axloqiy, ishqiy, ijtimoiy mavzularga bag'ishlangan. Jumladan:

Olam bor emish, Navoiyo, sho'rangiz,
Olamdagi el boshtin - ayog' rangomiz.
Ishq istar emish seni adam Misri sari,
Borg'ilki, erur el tilagan yerda aziz.

(MAT, 3-tom, 571-bet, № 45)

Mazkur ruboiy aslida bir mavzuning ikki qirrasini yoritishga bag'ishlangan. Bulardan birinchisi olam va olam ahlining turfa holati, ikkinchisi esa ishq va "adam Misri" - yo'qlik, fano shahri. Shoir bu bilan inson qayerda aziz tutilsa, o'sha yerda manzil qilishga istashini ifoda etgan. Ikkinchi tomondan esa bunda foniylik va boqiylik kabi tasavvufiy tushunchalar ham nazarda tutilib, bu olamning foniyligi "adam Misri"ning boqiyligi masalasiga ham ishora qilinmoqda. Tariqat soliki uchun esa "adam Misri" avlo, chunki uning tilagani, istagani ham shu. Demak, ruboiy falsafiy mazmunda bo'lganidan unda shu mazmunga muvofiq so'z va iboralar, o'xshatish va talmehlar (olam-sho'rangiz, el-rangomiz, ishq, Aziz, adam Misri…) qo'llanilgan.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

(MAT, 3-tom, 573-bet, № 55)

Bu ruboiy mashur bo'lganidan uni sharhlashga ehtiyoj sezilmaydi. Ammo by va undan oldin keltirilgan ruboiylar "a-a-b-a" tarzida qofiyalanuvchi bo'lsa-da, ikkinchisida qofiyadan tashqari radif (bo'lmas emish) ham bor. Birinchisida esa qofiya boru radif yo'q. "G'urbat"da deb boshlanadigan ruboiyning birinchi baytida "g'urbat va g'arib inson"ning holatidan bahs yuritilsa, ikkinchi bayti tamsil bo'lib, unda "bulbul-oltin qafas, qizil gul, tikon oshyon" masalasidan so'z boradi. O'ylab ko'rilsa, ikki baytda ham aslida bir mazmun, bir maqsad bor: u ham bo'lsa, inson ham, qush-bulbul ham o'zi o'rgangan manzil, vatanda baxtiyordir. Demak, inson ham, qush ham o'z vatanini hamisha ardoqlaydi, ya'ni vatanni sevmak imondandir. Bu esa ruboiydan kuzatilgan asosiy xulosadir.

Yana bir ruboiyni ko'zdan kechirish ma'qul ko'rindi:

Zog'eki, cho'qub oqizdi qon ko'nglumdin,
Tirnog' ila uzdi notavon ko'nglumdin.
A'zosida ko'r asar damim dudidin,
Minqor ila changida nishon ko'nglumdin.

(MAT, 3-tom, 582-bet, № 101)

Ruboiy "a-a-b-a" tarzidagi qofiya va radifga ham ega. Ammo u tuzilish jihatdan yuqorida keltirilganlardan farq qiladi, boshqacha aytganda buni yakpora ruboiy desa ham bo'ladi. Chunki unda bir timsol zog' tasviri to'rt misrada davom etib, yaxlit bir mazmun va timsol-obrazni kishi ko'zi oldiga gavdalantiradi. Bundan tashqari ana shu mazmun va timsolning o'zi ham kishini o'ylantirib qo'yadi, chunki u qadimgi yunon asotirlaridan bo'lmish Prometey va burgut bilan bog'li bo'lgan tasvirni eslatadi. Yunon asotirida qo'l-oyog'i kishlanlangan Prometey jigarini cho'quvchi burgut ko'rinsa, Alisher Navoiy ruboiysida "men"ning ko'nglini cho'qib, qonini oqizgan, minqori (tumshug'i) va changalida "men" yuragining parchalari bo'lgan hamda bunday azob-uqubatdan ohu fig'on chekayotgan "men"ning ohlari dudi-tutunidan a'zosi qoraygan zog' timsoli kishi ko'z o'ngida gavdalanib turadi. Alisher Navoiy to'rt misrada shunday mahorat ko'rsatganki, buning natijasida u mo'jaz bir she'riy masal darajasiga ko'tarilgan. Masalaning chuqur o'ylab ko'radigan tomoni – bu mazkur mo'jaz masalning yaratilishida Alisher Navoiy yunon asotiridan xabardormidi va yoki bu adabiy-ijodiy tavorud-mi?,[1)] ya'ni undan bexabar holda Alisher Navoiyning kashfiyoti-mi? Yunon asotirining Sharqda tarqalishini yanada teranroq o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar natijasi bu masalaga aniqlik kiritar degan umiddamiz. Shunday bo'lsa-da, bizning fikrimizcha, bu ijodiy tavorud natijasi bo'lsa kerak.

Endigi navbatda "a-a-a-a" tarzida qofiyalanuvchi va radifga ham ega bo'lgan ruboiylardan ayrimlarini ko'zdan kechiraylik:

Kim istasa saltanat saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart

(MAT, 3-tom, 575-bet, № 62)

Ko'rinadiki, ruboiy ijtimoiy-falsafiy mavzuda bo'lib, unda saltanat sohiblari-shoh va hokimlar uchun shart bo'lgan fazilatlar-saxovat va va'daga vafo hamda faqrni istavchilar uchun esa fano va rizo sifatlari shartligi tasvirlangan. Bu shartlar bajarilmas ekan, saltanat ham, faqr ham haqiqiy bo'la olmaydi. Ruboiyning 2-3-4 misralarida "aylasa", "qilsa", "kelsa" so'zlari misralar ora ohangdoshlikni maydonga keltirgan. Tuzilish jihatidan bu ruboiyga o'xshash, ammo o'ziga xos farqga ham ega bo'lgan yana bir ruboiyga murojaat etsak:

Bu davrda yo'q sen kibi xushxon hofiz,
Huffoz aro sarhalqayi davron hofiz,

[1)] tavorud – ikki shoirning bir-biridan xabarsiz holda bir xil asar (she'r, bayt) yaratish hodisasi.

Qur'onga sen o'lg'an kibi yakson hofiz,
Bo'lsun sanga barcha ishda Qur'on hofiz.
(MAT, 3-tom, 575-bet, № 63).

Ruboiy Alisher Navoiy bilan zamondosh bo'lib, Hirotda yashagan, Qur'onni yod bilgan (hofiz) va uni chiroyli qiroat qiluvchisi (xushxon) sifatida mashhur bo'lgan tarixiy shaxsga bag'ishlangan. Ammo, afsuski, Alisher Navoiy uning nomini tilga olmagan. Shunday bo'lsa-da, bu "xushxon hofiz"ga nisbatan Alisher Navoiyning chuqur hurmati ruboiydan bilinadi. (Ruboiyning yozilishiga "Makorim ul-axloq"da <Toshkent, 1967, 120-bet> keltirilgan hikoyadagi voqea ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin).

Va, nihoyat, quyidagi ruboiyni keltirish bilan Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritgan ruboiylari haqidagi mulohazalarni yakunlash mumkin:

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi,
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi.
(MAT, 3-tom, 588-bet, № 127)

Mazkur ruboiyning mashhurligi, badiiy tasvir jihatidan ham, mazmun jihatidan ham yetuk bo'lganidan uni keng sharhlashga ehtiyoj yo'q. Shunday bo'lsa-da, ruboiyda inson go'zalining zohiriy ko'rinishi – yuz, ko'z, qosh, qabog', dudog' (lab), eng (yuzning qizarib ko'rinadigan qismi), meng (katta qora xol)lari tilga olinib, hammasining go'zalligi bir so'z – "yaxshi" – bilan nihoyatda sodda va tushinarli tarzda bayon qilingan. Bunda "yaxshi" - go'zal, chiroyli, haddan tashqari maqtovga sazovor ma'nolarini ifoda etadi. To'rtinchi misra' esa ("Bir-bir ne deyin, boshdin ayoging yaxshi") o'zining xalqonaligi va nihoyatda quymaligi bilan yuqorida bildirilgan mulohazalarni yana bir karra tasdiqlaydi.

Shunday qilib, "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan ruboiylarning har biri o'ziga xos yetuk badiiy asar bo'lganligi bilan Alisher Navoiyning bu janrda ham mohir so'z san'atkori ekanligidan guvohlik beradi.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning ruboiylari boshqa asarlarida ham mavjud bo'lib, ularning namunasi sifatida "Xazoyin ul-maoni" uchun yozilgan debochadagilarni nazardan o'tkazish mumkin. Mazkur debocha XV asrning 90-yillarida, ya'ni Alisher Navoiyning "ellik bila oltmish" yoshga qadami yetgan vaqtda yozilgan. Shuning uchun undagi ruboiylarda ham shoirning ana shu davrdagi kayfiyati, ma'lum darajada hasbi holi o'z ifodasini topgan. Jumladan:

Shoirlig' ila shuhra qilib otimni,
Zoye' qildim she'r ila avqotimni.
Emdi tuzayin Tengriga tootimni,
Ko'p elga mushavvash etmay abyotimni.
(MAT, 3-tom, 10-bet).

Yoki:

Avval ikki devong'a chu qildim rag'bat,
Ham erdi yigitlik madadim, ham sihhat.
Bo'ldum chu qariyu xasta, yo'q ul quvvat,
Ko'rguzgali andoq nimalarga jur'at.
(MAT, 3-tom, 15-bet)

Yana:

Bu bahrki, ganji lomakoniy dedilar,
Har qatrasin obi zindagoniy dedilar,
Shah maxzani tab'idin nishone dedilar,
Kim ani "Xazoyin ul-maoni" dedilar.
(MAT, 3-tom, 18-bet).

Boshqa asarlar tarkibidagi ruboiylardan ayrimlari esa asarlar yozilgan yilni ifoda etuvchi ruboiy-tarix shaklidadir. Jumladan, quyida keltiriladigan ikkita ruboiy-tarix fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi.

1. "Vaqfiya" asarida keltirilib, uning yozilgan yilini (886-h – 1480-1481-m.) ifoda etuvchi ruboiy-tarix:

Yuz shukrki, buq'alar mukammal bo'ldi,
Vaqfi bu hududkim, mufassal bo'ldi.
Sekkiz yuz ediyu sakson olti tarix,
"Vaqfiya"si ul kunki, musajjal bo'ldi.
(MAT, 14-tom, 270-bet).

2. "Mahbub ul-qulub"da keltirilib, uning yozilgan yilini ifoda etuvchi ruboiy-tarix:

Bu nomag'akim, lisonim o'ldi qoyil,
Kilkim tili har nav' el ishiga noqil.
Tarixi chu "xush" lafzidin o'ldi hosil,
Har kim o'qisa, illohi, o'lg'ay xushdil.
(MAT, 14-tom, 130-bet).

Ruboiyning uchinchi misrasidagi "xush" so'zi arabcha yozilganda ( ) bu so'z abjad hisobi bilan 906-h yilni ifoda etadiki, u 1500-melodiy yilga mos keladi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy ruboiylarining bir guruhi an'anaviy mavzularda (ishq, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy…) yozilgan bo'lsa, ikkinchi guruhida ruboiy yozilayotgan davrdagi tarixiy sharoit, hodisa-voqea, kayfiyat, hasbi hol bayoni ham o'rin olgan.

2. Qit'a. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoni"si tarkibidagi hamma devonlarda mavjud bo'lgan qit'alarning soni 210 tani tashkil etadi. Uqtirish lozimki, Alisher Navoiyning qit'alari faqat "Xazoyin ul-maoni"dagina emas, balki boshqa, xususan nasriy asarlarida ham ko'plab uchraydi. Ammo ularning hammasi ham "Xazoyin ul-maoni"ga kiritilgan emas.

Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoni"siga kiritilgan qit'alar shakl va mazmun jihatidan mumtoz adabiyotshunoslikning mazkur janr oldiga qo'ygan talablariga javob beradi hamda o'zbek mumtoz she'riyatini boyitadi.

Alisher Navoiy o'z qit'alarining ahamiyati haqida shunday yozadi:

Mundoq muqattaotkim, men yig'misham erur,
Har bir hadiqai xirad aylar uchun farog'.
Majmo'in o'yla kishvare anglaki, sathini
Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog'.
(MAT, 6-tom, 520-bet, № 31)

Mazmuni: Men yiqqan qit'alarning har biri osoyishta yashash uchun bilim bog'laridir. Ularning jamini bir mamlakat deb tasavvur etsang, har bir qit'ani esa hikmat-donishmandlik suyi bilan sug'orilgan alohida bog' deb bilgil.

Alisher Navoiy qit'alarining mavzu doirasi keng bo'lib, ularda hayotdagi hodisa-voqealar, kishilarga munosabat, pand-nasihat, hasbi hol, o'z ijodi va ustozlar an'anasi haqida so'z yuritilgan. Alisher Navoiy qit'alarga katta e'tibor bergani ham bejiz emas. Shundan bo'lsa kerakki, har bir qit'aga alohida sarsuxan-sarlavha qo'yib, qit'adan kuzatilgan maqsadni ana shu sarlavhalarda mo'jazgina bayon etgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu sarlavhalarning o'zini mustaqil tarzda olganda ularning o'zi hikmat va zarbulmasal xususiyatiga ega. Jumladan: "Saxo so'zikim, saxiyg'a mujibi zabardastlik va soyil ilgiga mujibi zerdastlikdur" (MAT, 6-tom, 514-bet, № 12), "Yomon yomonlig'ini qilmasa, yaxshilig'cha bor va bir yaxshilig' qilsa, o'n yaxshi qiliqcha" (MAT, 6-tom, 514-bet, № 13), "Laimg'a ta'zim o'z-o'ziga ranji azimdur, balki azobi alim" (MAT, 3-tom, 550-bet, № 25), "Dono nuktasini nodon eshitmasa, qoyilg'a ne ziyon, gavhareki bu sochar, ul termasa, munga ne nuqson" (MAT, 5-tom, 493-bet, № 23), "Falokatdin ayog'iga kafsh bo'lmag'ang'a chun kafsh uchun

ayog'i bor, shukr vojibdur" (MAT, 5-tom, 499-bet, № 41), "Do'stdinki dushman xo'yi bo'lg'ay, dushman yaxshiroqdurki, do'st ro'yi bo'lg'ay" (MAT, 5-tom, 505-bet, № 58) va boshqalar. Bu o'rinda shuni ham nazarda tutish lozimki, sarlavharda mumtoz nasr va nazmda qo'llanilgan saj' san'ati ishlatilgan. Misollar: "Yaxshi xotunlar safoyi ro'zgori quyosh nurig'a misoldur va shamsning muannas ekani munga dol (dur)" (MAT, 5-tom, 490-bet, № 14). Bunda birinchi qismdagi "misoldur" va ikkinchi qismdagi "dol (dur)" qofiyadosh va changdosh bo'lib kelgan. Yana: "Laimg'a ta'zim o'z-o'ziga ranji azimdur, balki azobi alim" (MAT, 3-tom, 550-bet, № 25). Bunda esa 'Ta'zim, azim, alim" so'zlarining keltirilishi saj' san'atining chiroyli bir ko'rinishidir. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bularning hammasida Alisher Navoiyning shoir va nosir sifatidagi mahorati namoyon bo'la veradi.

Ba'zi sarlavhalar qit'alarning mohiyati va yozilish sabablarini tushinishga "kalit"lik vazifasini ham bajaradi. Agar o'quvchi sarlavhaga e'tibor bermay, qit'aning o'zini o'qisa, uning asl ma'nosini tushinish yoki yozilish sababini aniqlashda qiynalib qolishi mumkin. Misol uchun quyidagi qit'ani olib qarasak:

Nukta asnosida Habibulloh,
Dedi: "al-kosibu habibulloh".
Ma'ni aytur bu so'zga piri komil
Ki, so'zi erdi Haq sari shomil:
G'araz ermas bu kasbdin dunyo,
Bal erur kasbdin murod – fano
(MAT, 5-tom, 487-bet, № 3)

Mazkur misol tuzilish jihatidan masnaviy tarzida qofiyalanib, rasmiy qit'alardan farq qiladi. Shuning bilan unda aniqlanishi lozim bo'lgan o'rinlar ham ko'zga tashlanadi. Ana shularni to'liq tushinishda unga yozilgan quyidagi sarlavha ko'maklashadi: "Hadis mazmunikim, "Al-kosibu habibulloh" hazrat Xojayi Naqshband qaddasa sirrahu mundoq bayon qilibdurkim (qit'a-masnaviy)". Demak, mazkur qit'aning yozilishiga asosiy sabab-hazrat Xoja Bahovaddin Naqshbandning payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislari bo'lmish "al-kosibu habibulloh"ning sharhlarini o'zbek tilida talqin qilish bo'lgan. Shuning uchun birinchi baytda hadis, uning muallifi hazrat Muhammad (s.a.v.)ning sifatlari (Habibulloh)ga oid ma'lumot o'rin olgan bo'lsa, ikkinchisida uni sharhlovchi "piri komil" – Xoja Bahovaddin Naqshbandning fazilatlari bayon etilgan. Uchinchi bayt esa ana shu hadisning Xoja Bahovaddin Naqshband tomonidan qilingan sharhi o'zbek tilida talqin qilingan. Bu qit'a-masnaviyning yozilishiga nima bois bo'lgan? degan savolning tug'ilishi tabiiydir. Bizningcha, buning asosiy sababi shundan iborat bo'lsa kerakki, Rasulullоh Muhammad (s.a.v.) hazratlarining mazkur hadislarini tushinish va sharhlashda o'sha davrda har xillilik kuzatilgan bo'lishi mumkin. Ehtimolki, ayrimlar mazkur hadisning zohiriy ma'nosiga (kosib – Allohning do'sti) e'tibor berib, uni umuman kosib-hunarmand Allohning do'sti tarzida tushinib, hadisning asl-botiniy ma'nosiga diqqat qilmagan bo'lishlari mumkin. Alisher Navoiy kabi donishmand kishi esa masalaning asl mohiyatiga e'tiborni qaratishni lozim deb bilib, uni tushintirish va sharhlashda naqshbandiya sulukining murshidi Xoja Bahovaddin Naqshbandning shu hadis sharhiga oid mulohazalarini o'zbek tilida talqin qilishni ma'qul deb topgan. Natijada keltirilgan misolning uchinchi baytida ana shu maqsad amalga oshirilgan, ya'ni bu hadisdan kuzatilgan asosiy maqsad (g'araz) dunyoviy kasblarni egallagan shaxs (nonvoy, ignachi, temurchi, xattot…) emas, balki tariqat yo'lida fanoni o'z kasbiga aylantirgan solikgina u turli xil kasb egasi bo'lishi ham mumkin habibulloh – Allohning do'sti bo'lishi mumkin. Xoja Bahovaddin Naqshband sharhlarining Alisher Navoiy tomonidan talqini masalaga oydinlik kiritadi va bu masalani har xil sharhlashga o'rin qoldirmaydi. Demak, Alisher Navoiy tomonidan "Badoye' ul-vasat" devonining muqattaot bo'limiga kiritilgan, masnaviy tarzida qofiyalangan bu qit'a arabcha hadisi sharifning forsiy sharhiga yozilgan o'zbekcha talqini bo'lib, u, o'z navbatida, Alisher Navoiyning tariqat murshidi Xoja Bahovaddin Naqshbandga bo'lgan komil ehtiromining ifodasi hamdir. Bunday ehtirom Alisher

Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan yana bir qit'asida ham ko'rinadi. Bu qit'a – masnaviyning sarlavhasi va o'zi quyidagicha:

"Masnaviy: Xojayi Naqshband quddusa sirrihu kalomi tarjimasidakim: "Avval bozgashti xotiri xasta va ba'd az on tavajjuhi dili shikasta":

Xastaning boshig'a chu qo'ydi qadam,
Piri shikastadili Masehodam.
Bozgasht ayladi chu xasta ko'ngul,
Neki istar topar shikasta ko'ngul.
Ko'nglida chun havo qilur tug'yon,
Umri sham'ig'a yetkarur nuqson.
(MAT, 6-tom, 524-bet, № 42).

Hazrati Xoja Bahovaddin Naqshbandning "avval bemor xotirini shod qilmoq, so'ng esa majruh ko'ngulga mehribonlik ko'rsatmoq darkor" mazmunidagi so'zlarining o'zbekcha talqini (tarjimasi) bo'lgan, qit'alar qatoriga kirilgan bu masnaviy (Alisher Navoiy ham uning masnaviy ekanini sarlavhadayoq alohida uqtirgan) xasta-bemor-kasal bo'lib qolgan odamni birinchi navbatda ko'rishga borish odamiylikning eng olijanob fazilatlaridandir, chunki bu vaqtda xasta-bemorning siniq ko'ngli o'z holiga qaytadi (bozgasht), ya'ni ruhiy madad bilan bemor tuzala boshlaydi, degan fikrni bayon etadi. Muhimi shundaki, Alisher Navoiy hazrati Xoja Bahovaddin Naqshbandning hikmatli so'zlarini (hadisda bo'lganidek) talqin qilish bilan birga masnaviy –qit'aning yakunlovchi baytida ana shunday fazilatdan mahrum bo'lgan kishi hayotini shamol natijasida o'chadigan sham' taqdiriga o'xshatib, o'zining fikrini-takabburlikning ofat ekanligini ifoda etadi. Demak, masnaviy-qit'ada ham Xoja Bahovaddin Naqshband so'zlarining talqini va bu so'zlardan Alisher Navoiy chiqargan xulosa ham bor.

Qit'alarga yozilgan sarlavhalarning ayrimlarida o'sha qit'aning o'zi (Alisher Navoiy)ning hayoti, ijodiga bevosita aloqadorligi yoki hasbi hollik xususiyatiga ega ekanligiga alohida urg'u beriladi. Bular esa nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Misollar:

"O'zi (ya'ni Alisher Navoiy) so'zi bobida derkim, muqobalada har kim ilik urg'ay, ammo qalam sura olmag'ay va orzu qilg'ay, va lekin tilga keltura olmag'ay" (MAT, 5-tom, 499-bet, № 39), "O'z nazmining rutbasi poyasin te'dod qilur va har biriga martabaye isnod qilur" (MAT, 5-tom, 499-bet, № 40), "Yaraqon bo'lg'anida o'zining za'faroniy ranginu pari xayolining o'z ko'zida darangin aytur" (MAT, 6-tom, 514-bet, № 10), "Bu qit'a o'z qit'alari ta'rifidadurkim, bu ham alardin birdur va ta'rif munga ham sodiq kelur" (MAT, 6-tom, 520-bet, № 31) va boshqalar. Shunday qilib, qit'alar uchun yozilgan sarsuxan-sarlavhalarni qit'alar bilan yaxlit holda qarash ularning mohiyati, yozilish sabab va maqsadlarini chuqur anglash uchun xizmat qiladi.

Endilikda turli mavzudagi ayrim qit'alarni sarlavhalari bilan keltirish va o'guvchilarning esa ular to'g'risida mulohaza yuritishlariga imkoniyat yaratish ma'qul ko'rindi:

1. Kamol kasbiga dalolatu nuqsonidin izhori malolat:

Kamol et kasbkim olam uyidin,
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.
(MAT, 3-tom, 545-bet, № 10)

Bu qit'a "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" (T. "O'zbekiston", 2000, 56-bet) kitobiga kiritilib, uning komil inson g'oyasini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtirilgan.

2. Maxluq mulozamatidin tanfiru g'ayri Haq mulozamatidin tahzir:

Kimki maxluq xizmatig'a kamar
Chust etar, yaxshiroq o'shalsa beli.
Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur

Ki ani chiqsa egni, sinsa eli.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh,
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.
(o'sha asar, 545-bet, № 9)

3. Atfolni qarilar xizmatig'a yo'ldamoqu chuchuk so'z bila aldamoq:

Qarilar xotiri nozikdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustox.
Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda,
Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox.
(o'sha asar, 554-bet, № 35)

4. Komil qalamzan so'zidakim, ta'rifi lozim kelgayki, qalam tilin bilur kishi ani bilgay:

Qiblat ul-kuttobkim, derlar ani Sulton Ali,
Kim qazo kilki masallik xomasi yozmas g'alat.
Qaysi qit'amniki yozdi, bordi andin she'rlik,
El solurlar juzvdong'akim, erur bir qit'a xat.
(o'sha asar, 558-559-betlar, № 47).

5. Nokas kishi bo'lmasliqda va nojins kishi jinsi bo'lmasliqda:

Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.
(MAT, 4-tom, 521-bet, № 43).

6. Uy ravnaqi muloyim hamzonudindur va ro'zgor turfalig'i turfago' bonudin:

Uyda ravnaqdurur, agar kishiga,
Yaxshi hamxona bo'lsa hamzonu.
Zeb ila turfa hargiz o'lmas uy,
Bo'lmasa anda turfa kadbonu.
(MAT, 6-tom, 523-bet, № 40)

1. Nazmining baytlarin g'arib ma'nilar bila g'aribxona debtur, ya'ni dor ush-shifoki, mujibi shifo bo'lg'ay:

Nazmim ichra g'arib ma'nilar,
G'urabo xaylidin nishonadurur.
Anda har bayt necha ma'ni bila,
Bayt emaskim, g'aribxonadur.
(o'sha asar, 519-bet, № 27).

2. Shahning adolati olamni quyoshdek ravshan qilurida va zulmdin tiyralik yoyilurida aytibdur:

Quyoshdek shah adolat pesha qilsa,
Jahon mulkini bir damda yorutg'ay.
Agar zulm etsa aqshom zulmatidek,
Hamul dam tiyralik olamni tutg'ay.
(MAT, 5-tom, 496-bet, № 32)

Yuqorida qayd qilinganidek, Alisher Navoiyning qit'alari bashqa, xususan turli yillarda yozilgan nasriy asarlarida ham ko'plab uchraydi. Jumladan, 906-hijriy – 1500-melodiy yilda yozilgan "Mahbub ul-qulub"da keltirilgan qit'alar nasriy bayondan so'nggi she'riy xulosa vazifasini ham bajargan. Masalan, asarning 31-fasli "Dehqonlar zikri"ga bag'ishlangan bo'lib, nasriy bayondan so'ng quyidagi qit'a keltirilgan:

Kimki dehqonlig' ayladi pesha,

Dag'i non bermak o'ldi anga shior.
Bo'yla kimsa uluvvi rif'atdin,
Odam o'lmasa, odamiy xud bor.
(MAT, 14-tom, 38-bet).

Yana bir misol. "Mahbub ul-qulub"ning uchinchi qismidagi 93-tanbehda insoniy fazilatlardan bo'lmish ehson haqida so'z yuritilib, u quyidagi qit'a bilan yakunlanadi:

Kishida barcha axloqi hamida
Chu jam' o'ldi, qo'yarlar otin ehson:
Biri andin saxodur, bir muruvvat,
Bular gar yo'qtur, inson ermas inson.
(o'sha asar, 110-bet).

Shunday qilib, Alisher Navoiy boshqa janrlar bilan bir qatorda qit'a yozishga alohida e'tibor berib, unda ham o'zining shoirlik mahoratini namoyish etgan. Bu qit'alarning ko'pi tarixiy hodisa-voqea va shaxslarga, shoir hasbi holi va ijodi bilan bog'liligi jihatidan ham tarixiy hamda badiiy qimmatga egadirlar.

Biz "Xazoyin ul-maoni"dagi g'azal, ruboiy, qit'a janrlarining ayrim xususiyatlari, mavzu doirasi, badiiyati to'g'risida qisqacha to'xtaldik. "Xazoyin ul-maoni"ga kiritilgan qasida, masnaviy, tarje'band, tarkibband, muxammas, musaddas, musamman, tuyuq, chiston, muammo, fard, soqiynoma, mustazodlar ham o'z xususiyatlari va mahorat bilan yozilganlari jihatidan faqat Alisher Navoiy ijodidagina emas, balki o'zbek mumtoz she'riyatida muhim o'rin egallaydi.

Adabiyot

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 3-6 – tomlar.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom.
3. Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Toshkent, "Cho'lpon", 1991.

"ARBA'IN", "NAZM UL-JAVOHIR", "SIROJ UL-MUSLIMIN"

Ma'lumki, Alisher Navoiy qalamiga mansub she'riyatning barchasi "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritilmagan. Ularning ayrimlari mustaqil asarlar sifatida taqdim etilgan. Ana shundaylardan "Arba'in", "Nazm ul-javohir", "Siroj ul-muslimin"larni misol qilib keltirish va ular to'g'risida qisqacha to'xtalish ma'qul ko'rindi. Chunki bu har uchchala asar ham kam o'rganilgan va, hattoki, "Siroj ul-muslimin" faqat Respublikamiz istiqlolga erishgach, 1991-yilda birinchi marta nashr etildi. Tilga olganimiz asarlar islomiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, ular inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Arba'in" yoki "Arba'in hadis". "Qirq hadis" deb atalgan mazkur asarning yozilish tarixi to'g'risida Alisher Navoiyning o'zi asarning muqaddimasi hamda ustozi Abdurahmon Jomiy haqidagi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida shunday hikoya qiladi:

"Ul vaqtdakim (ya'ni 886-hijriy – 1481-melodiy yilda – B.V.) alar (ya'ni Abdurahmon Jomiy – B.V.) "Arba'in hadis"ni forsiy nazm bila tarjima qilib erdilar va ma'hud odat bila borcha ashobdin burunroq faqirg'a iltifot qilib, musavvadasin berdilar, chun mutolaasig'a mashg'ul bo'ldum…, hamul "Arba'in"g'a turkicha til bila tarjima orzusi ko'ngulga tushti. Alardin ruxsat sharafiga musharraf bo'lg'ondin so'ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkiga kirdi" (MAT, 15-tom, 55-bet). Demak, Alisher Navoiyning "Arba'in"i 886-hijriy – 1481-melodiy yilda yozilgan bo'lib, unda Rasulullоh Muhammad (s.a.v.)ning qirqta saheh hadislari she'riy tarzda-to'rt misra'dan iborat qit'a shaklida sharh qilingan.

Hadislarni sharhlashdan kuzatilgan asosiy maqsadni Alisher Navoiy "Arba'in" uchun masnaviy shaklida yozilgan kirish qismida shunday bayon etgan:

Ul Rasuleki kalomi faseh,

Elga yetkurdi ham hadisi saheh.
To ulus jahldin xalos bo'lub,
Ilm xilvatgahiga xos bo'lib
Chun tog'din najot topqaylar,
Ujmoq ichra hayot topqaylar.
(Arba'in. Toshkent, "Mehnat", 1991, 6-bet)

Demak, asar xalqni jaholatdan asrash, uning ilmli va ma'rifatli bo'lishini istash maqsadida yozilgan. Darhaqiqat asarda pand-nasihat mavzusidagi qirqta hadis tanlanib, ular nihoyatda katta mahorat bilan o'zbek tilida talqin qilingan. Bu ishning qanday darajada amalga oshirilganini aniq tasavvur ettirish maqsadida ulardan ayrimlarini nazardan o'tkazish ma'qul.

1. Hadisning asli: al-ilmu lo yubxalu minhu, ya'ni: ilmni to'hfa qilishda (o'rgatishda) baxillik qilma.

Abdurahmon Jomiyning sharhi:

Ey, garonmoya mardi donishmand,
Ki turo ilmi din buvad ma'lum.
Musta'idro az on mashav mone',
Mustahiqro az on makun mahrum.

Alisher Navoiyning tarjima-sharhi:

Ey xiradmand olimeki senga,
Ilmi din ro'ziy ayladi sone'.
Kishi o'rgansa, qilmag'il mahrum,
Yoki naf' olsa, bo'lmag'il mone'.
(Arba'in, 81-bet).

Ketirilgan misolda arab, fors va turkiy tillar qatnashmoqda. Arab tilidagi asl matn nihoyatda ixcham bo'lib, to'rt so'zdan tashkil topgan. Jomiy va Navoiy misralari esa asliyatning so'zma-so'z tarjimasi bo'lmay, balki badiiyat qonuniyati asosida amalga oshirilgan to'rt misralik qit'a talablariga muvofiq sharhlardir, ularda qofiya bor, vazn bor.

Jomiy va Navoiy sharh-qit'alarining birinchi baytida olim-donishmandga murojaat qilish bor. Bu murojaat asliyatda yo'q, demak ular sharhlovchilarning ilovasi. Qit'alarning ikkinchi baytida esa hadisning mazmuni qamrab olinib, ular asosiy maqsadni ifodalovchi yakuniy baytga aylanganlar. Shunday qilib, bu sharhlar hadis ruhidagi axloqiy mavzudan bahs yurituvchi mustaqil qit'alardir.

2. Hadisning asli: xayr un-nasi man yanfa' un-nasa, ya'ni yaxshi odam ulki, odamlarga nafi tegadi yoki odamlarga foydasi tegadigan kishi yaxshi odamdir.

Abdurahmon Jomiy sharhi:

Ey, ki pursi ki behtarin kas kist?
Go'yam az qavli behtarin kason:
Behtarin kas kase buvad, ki zi xalq
Besh boshad ba xalq naf'rason.

Alisher Navoiyning tarjima-sharhi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf'andin.
Yaxshiraq bil oni ulus orakim
Yetsa ko'proq ulusqa naf'andin.
(Arba'in, 59-bet).

Umumiy yo'nalish, ya'ni tarjima-sharhlik nuqtai nazaridan bu misol ham avvalgisiga o'xshash bo'lsa-da, ammo buning o'ziga xos tomonlari ham bor. Bu o'ziga xoslikning birinchisi shundan iboratki, arab tilidagi matnda saj' san'ati (nasi-nasa) ko'zga tashlanadi. Hadis o'z ruhi bilan savol-javob uslubini esladi. Ana shu uslub Jomiy va Navoiy sharhlarida ham mavjud. Shuning uchun har ikki muallif

qit'alarining birinchi bayti shoirlarning savol beruvchi shaxsga murojaati shaklini olgan bo'lsa, ikkinchi baytlar unga javob tarzida bo'lib, hadisning mazmunini o'zlarida mujassam etganlar. Ikkinchidan, hadisning birinchi qismidagi "xayr un-nasi" – "yaxshi odam" iborasi Jomiyda uch marta "behtarin kas" tarzida takrorlangan bo'lsa, Navoiyda "yaxshiroq kim" iborasi ikki marta ishlatilib, asosiy urg'u shunga qaratiladi hamda oxirda unga javob beriladi. Shunday qilib, Jomiy ham, Navoiy ham bu xulosani fikrning yuqori nuqtasi darajasiga ko'taradilar va o'quvchini unga zina-bazina olib chiqadilar.

Sunday qilib, Alisher Navoiyning "Arba'in hadis" yoki "Arba'in" deb ataluvchi asari hadislar misolida muallifning hayot va insoniylikka doir mulohaza va mushohadalarini yaqqol gavdalantiradi.

"Nazm ul-javohir". "Tizilgan gavharlar" ma'nosini anglatuvchi bu asar 890-hijriy – 1485-melodiy yilda yozilgan bo'lib, u Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. Asar nasriy debocha bilan boshlanib, 255 ruboiydan iborat. ("Makorim ul-axloq"da 260 ruboiy deb ko'rsatilgan). Alisher Navoiyning uqtirishicha, asarning yozilishiga sabab bo'lgan manba' hazrat Alining "Nasr ul-laoliy" nomli hikmatli so'zlari to'plamidir: "Parishon xotirg'a… bu orzu… erdikim, - deb yozadi Alisher Navoiy, - turkiy tili bila men ham ul laolini orosta qilg'aymen… to andin turk ulusig'a ham hazzi shofi va bahrai vofi muyassar bo'lg'ay" (MAT, 15-tom, 128-bet). Alisher Navoiy ana shu orzuni amalga oshirib, "Nasr ul-laoli"dagi hikmatli so'zlarni o'zbek tiliga ruboiy tarzida o'giradi. "Har ruboiyning, - deb yozadi Alisher Navoiy, - to'rtalasi misra'ini muqaffoi muraddaf mar'i tutuldi" (o'sha asar, 135-bet). Darhaqiqat, asardagi 255 ta ruboiyning hammasi ana shunday (to'rt misrasi ham qofiyali va radifli) tartibdadir. Asarda avval hazrat Alining arab tilidagi hikmatli so'zi keltiriladi-da, so'ng uning Alisher Navoiy tomonidan amalga oshirilgan sharhi-ruboiysi beriladi. Ruboiylarda adolat va imonlilik, saxiylik va ilmlilik, do'stlik va muruvvat, ota-ona hurmati kabi masalalar yoritilgan. Fikrimizning tasdiqi uchun bir necha ruboiyni misol tarzida keltirish mumkin:

1. Qardoshing emas ulki qo'yub bosh sanga,
Davlat chog'i qilg'ay o'zni qo'ldosh sanga.
Kim qildi qatig'lig'da vafo fosh sanga,
Ul bo'ldi haqiqat ichra qardosh sanga.
(MAT, 15-tom, 137-bet, № 2)

2. Ista ato yo'lida fido jon qilmoq,
Qulluk anoga ham ulcha imkon qilmoq.
Zuhri abad istasang farovon qilmoq
Bil oni ato-anog'a ehson qilmoq.
(o'sha asar, 138-bet, № 11)

3. Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay.
Har kimki, atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.
(o'sha asar, 151-bet, № 89)

4. Kimni tilasang bilay maqolin angla,
Aslin desang anglayin, fiolin angla.
Kirdorig'a boqib, asl holin angla,
Asliga dalil aning xisolin angla.
(o'sha asar, 148-bet, № 72)

5. Xub el bila so'hbat tutubon xub o'lg'il,
Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il.
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,
Yumshoq de hadisingniyu mahbub o'lg'il.
(o'sha asar, 171-bet, № 201)

Demak, Alisher Navoiy islomiy tamaddun manba'larida insonni komil bo'lishlikka da'vat etuvchi barcha ezgu fikrlarni turli shaklda xalqqa yetkazishga hormay-tolmay ijodiy mehnat qilgan.

"Siroj ul-muslimin". "Musulmonlig' charog'i" deb ataluvchi bu asar 905-hijriy – 1499-1500-melodiy yilda masnaviy tarzida yozilgan. Alisher Navoiy asarning kirish va xotima qismlarida uning yozilishi sabablari haqida so'z yuritgan. Undan ma'lum bo'lishicha, asarni yozilishga marhum Xoja Ubaydulloh – Xoja Ahrori Valining so'z asnosida Alisher Navoiyni eslab, u juda ko'p asarlar yozdi, agar islomiy mavzularni ham nazm qilsa edi, munosib ish bo'lardi ("Kim ul ko'p nazm derga bo'ldi rog'ib, Bu yanglig' nazm ham erdi munosib") degan so'zlari ham bois bo'lgan ekan. Albatta, Alisher Navoiyning bunday e'tiroflari bejiz emas, chunki u Xoja Ahrori Vali murshidi bo'lgan naqshbandiya sulukining irodatmandi bo'lib, murshidning istaklarini amalga oshirishi kerak edi. Ikkinchi tomondan esa shariat ahkomlarini turkiy tilda sodda va tushinarli tarzda bayon etish zarurati ham bu asarning yozilishiga sabab bo'lgan. Bu haqda Alisher Navoiy quyidagicha yozgan:

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur,
Ki bo'lg'ay dini islom uyi ma'mur.
Nekim din ahlig'a bo'lg'ay zarurat,
Bari tutqay ani bilganga surat.
Ham etqaymen burun sharhi aqoid,
Ki islom ahlig'a bergay favoid.
Yana ham farz, ham vojib, sunan ham,
Nekim oriz bo'lur yaxshi, yamon ham.
Ki din ahlining o'lg'ay dilpaziri,
Musulmonlig' ishida noguziri.
Bayon qilg'aymen andoq ravshanu pok
Ki idrok etgay oni xayli atrok.

(Siroj ul-muslimin. Toshkent, "Minhoj", 1991, 7-bet)

Biz bu parchani bejiz keltirmadik. Chunki unda Alisher Navoiyning mazkur asarni yozishdan kuzatqan maqsadi quyma tarzda bayon etilgan. Darhaqiqat, asarni o'qigan har bir kitobxon shariat qonun-qoidalari, ahkomi, besh rukni to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'ladi, ya'ni Alisher Navoiyning uqtirishicha:

Chu ravshan aylar islom ahli zotin,
"Siroj ul-muslimin" qo'ymishmen otin.
Umidim shulki, har kim o'qug'ay,
Muning nuri bila ko'ngli yorug'ay.

(Siroj ul-muslimin, 25-bet)

Bu asar Respublikamiz istiqlolga erishgani munosabati bilan olima Suyima G'ani qizi tomonidan nashrga tayyorlanib, kirish so'z bilan ta'minlandi va 1991-yilda o'quvchilarga taqdim etildi.

Adabiyot

1. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. Mukammal asarlar to'plami, 15-tom.
2. Alisher Navoiy. Arba'in. Toshkent, "Mehnat", 1991.
3. Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimin. Toshkent, "Minhoj", 1991.
4. B.Valixo'jayev. "Arba'in hadis" va uning tarjimalari. "Alisher Navoiyning badiiy mahorati masalalari" (maqolalar to'plami). Toshkent, "Fan" 1993, 126-135-betlar.

ALISHER NAVOIY – FONIYNING FORSIY SHE'RIYATI

Alisher Navoiy arab, forsiy va turkiy tillarni mukammal bilgan holda bu tillarda asarlar ijod etardi. Uning she'riyatida ham bunday sifat ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiyning turkiy tildagi she'riyati shoirning jahoniy sho'hratini ta'min etgan bo'lsa, fors-tojik tilida bitgan she'rlari ham uning forsigo'ylar orasidagi ulkan mavqeini yana bir karra tasdiqladi. Shunisi borki, ikki tilda yaratilgan she'riyat ham Alisher Navoiy kabi daho qalamiga mansub ekan, ularni yaxlit holda o'rganish va talqin qilish lozim. Chunki shoirning olijanob maqsad va fikrlari, yaratgan timsol (obraz)lari har ikki tilda bitgan she'riyatda ham ifoda etilgan. Farq esa ana shu tillarning xususiyatlaridan kelib chiqqan bayon uslubida kuzatilishi tabiiy. Xuddi shu masala Alisher Navoiy – Foniyning quyidagi mashhur qit'asida bayon etilgan:

Ma'niyi shirinu ranginam ba turki behad ast,
Forsi ham la'lu durhoyi samin gar bingari.
Go'iyo dar rastayi bozori suxan bikshudaam,
Yak taraf do'koni qannodiyu yak so' zargari.
(Devoni forsi. Dushanbe, "Irfon", 1993, c. 301)

Mazmuni: Turkiy tilda shirin ma'nolar, badiiy go'zal asarlarim ko'pdir. Forsiy she'rlarim ham qimmatbaho gavhardirlar. Bu bilan go'yo so'z bozorining bir tomonida shirinliklar do'koniyu ikkkinchi tomonida zargarlik do'konini ochgandekman.

Bunda ulug' shoir ikki tilda yozgan asarlarining bir xil qimmat va ahamiyatga ega ekanligini yuda chiroyli badiiy tasvirda ifoda eta olgan. Darhaqiqat ham xuddi shunday.

Alisher Navoiy asosan va ko'proq turkiy tilda ijod qilsalar-da, forsiy she'rlar yozishni ham yoshliklaridan[1] umrlari oxirigacha davom ettirgan edilar. Natijada bu tilda yaratilgan asarlar anchagina miqdorda to'planib qolib, shoir ularni devon holiga keltirishga shoshilmasdi. Alisher Navoiyning bu tildagi she'rlaridan xabardor bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro ularni ham to'plashga buyurgan ekan. Bu holni Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga yozgan bir maktubidan bilish mumkin:

"Alhamdulilloh v-al-minna bu uchurda hukm, yo'suni bila forsiy parishon abyot va parokanda ash'orni yig'ib, devon yo'sunluk jild qilinib erdi, Yusuf Alidin tobug'da yuborildi. Umid ulki, qabul davlatig'a muzayyan va pisand saodatig'a musharraf va mustahsan bo'lg'ay" (MAT, 14-tom, 219-bet). Bu maktubda devonning tuzilgan yili va nomi eslatilmagan bo'lsa-da, ammo bularga ishorani "Muhokamat ul-lug'atayn"da (bu asar 905-hijriy - 1499-1500-melodiy yilda yozilgan) berilgan quyidagi ma'lumotda uchratish mumkin: "Yana forsiy g'azaliyot devoni… tartib beribmenkim, olti mingdin abyoti adadi ko'prakdur" (Asarlar, 15-tomlik, 14-tom, 125-bet).

Demak, forsiy she'rlar devoni 905-hijriy – 1499-1500-melodiy yildan oldin-taxminan 90-yillarning ikkinchi yarmida tartib berilgan. Undagi she'rlarda Foniy taxallusi qo'llanilganidan uni "Devoni Foniy" tarzida atash odat bo'lib qolgan. "Devoni Foniy"ning muallif qalamiga mansub dastxat (avtograf) nusxasi noma'lum bo'lsa-da, ammo undan ko'chirilgan nusxalardan yettitasi hozirda ma'lum. Ularning 2 tasi Parij, 2 tasi Turkiya, 2 tasi Hirot va 1 tasi Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda.

Adabiyotshunos va matnshunos marhum Hamid Sulaymonovning e'tiroflaricha, bu nusxalardan Parij Milliy kutubxonasidagi ikki nusxa ancha mukammalroqdir.[2]

Ana shu nusxalar asosida "Devoni Foniy"ning tarkibi quyidagicha:

---

[1] Qaralsin: Muhokamat ul-lug'atayn. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom, 119-bet.

[2] Hamid Sulaymon. Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi. ADD, Tashkent, 1961, str. 38-39. Bu tadqiqotda "Devoni Foniy"ning 5 nusxasidan (2 ta Parij, 2 ta Turkiya va 1-ta Tehron) so'z boradi. Bu devonning Hirotdagi 2 ta nusxasi esa Eron olimi Rukniddin Humoyun Farrux tomonidan foydalanganligini Ali Muhammadiy eslatadi. Qaralsin: Devoni forsi. Dushanbe, 1993, 15-bet.

aqam	Janr	soni		aqam	Janr	soni
	Debocha	1		.	Qit'a	72
	Qasida	10		.	Ruboiy	73
	G'azal	554		.	Tarix	16
	Musaddas	1		.	Muammo	373
	Marsiya	1		0.	Lug'z	9
Jami: 1109 ta asar						

Demak, devonda jam'i 1109 ta asar bor bo'lib, ular 6197 baytni tashkil etadi. Ammo bu o'rinda Alisher Navoiyning forsiy tilda bitgan muammolari soni haqida "besh yuzga yaqin muammo" (Asarlar, 15 tomlik, 14-tom, 125-bet) degani e'tiborga olinib, bu e'tirof Parij nusxalaridagi muammolar soni (373) bilan solishtirilsa, unda Parij nusxalari ham "Devoni Foniy"ning mukammal nusxalari bo'la olmasligini ko'rsatadi. Bu fikrni Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn"da forsiy she'rlari janrlari qatorida "masnaviy"ni eslatishi va bu janrdagi asarning esa Parij nusxalarida uchramasligi yana bir karra tasdiqlaydi. Demak, "Devoni Foniy"ning mukammal nusxasini aniqlash hali davom etmoqda.

"Devoni Foniy"ning hozircha ma'lum bo'lgan qismida son jihatdan eng ko'plari g'azal, muammo, ruboiy va qit'adir. Boshqa janrdagi asarlar son jihatidan ancha kam (yuqoridagi chizmaga qaralsin). Shundan kelib chiqib, biz ularning ayrimlari haqida ba'zi mulohazalarni bayon etmoqchimiz.

1. G'azal. Devonda g'azal yetakchi o'rinni egallaydi. Ularni ko'zdan kechirgan Hamid Sulaymon, Shoislom Shomuhammedov, Alisher Shomuhammedov, Yoqubjon Ishoqov, Abdulg'ani Mirzoyev, Rasul Hodizoda kabi allomalarning tadqiqotlari shundan guvohlik beradiki, Alisher Navoiyning forsiy tildagi g'azallari o'zining mazmun va badiiyati nuqtayi nazaridan ulug' shoirning ko'pqirrali mahoratining natijalari bo'lib, ba'zi bir xususiyatlari bilan o'zbek tilidagi g'azallaridan ajralib ham turadi. Bunday takrorlanmas xususiyatlar shundan iboratki, forsiy g'azallar ikki guruhga ajratiladi: birinchi - tatabbo'', ikkinchisi – muxtare'. Birinchi guruhga mansub g'azallarda ularning Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa shoirlarning g'azallariga tatabbo'' – javobiya ekanligi har bir g'azal sarlavhasida alohida-alohida uqtiriladi. Jumladan, "Tatabbo''i Xoja Hofiz", "Tatabbo''i Amir Xusrav", "Tatabbo''i Maxdumi Jomiy (ba'zan esa "Tatabbo''i Maxdumiy)", "Tatabbo''i mavlono Shohiy", "Tatabbo''i Mir Suhayliy" va boshqalar. Shuni ham eslatish o'rinliki, Alisher Navoiy – Foniy o'zining bir qit'asida bu hodisaning sababini shunday izohlagan:

Tatabbo'' kardani Foni dar ash'or,
Na az da'viyu ne az xudnamoyist.
Chu arbobi suxan sohibdilonand,
Murodash az dari dilho gadoyist.
(Devoni forsi. Dushanbe, "Irfon", 1993, c. 301).

Mazmuni: Foniyning she'riyatdagi tatabbo''lari o'zini ko'rsatishga intilishi va yoki manmanligidan emas, balki so'z arboblari daholar bo'lgach, uning asosiy maqsadi bu ulug'lardan madad istashdan iboratdir.

Alisher Navoiy-Foniyning forsiy g'azaliyotidagi bunday yangi uslub uning turkiy g'azaliyotida aynan uchramaydi. Buning yangi uslub ekanini Alisher Navoiy-Foniyning o'zi bir tatabbo'' g'azalida shunday ifoda etgan:

Z-in nazmi nav charxi kuhan yakbora go' hayrat makun,
Foni chu ta'limi suxan dorad zi Jomi borho.

(Devoni forsi, 31-bet).

Mazmuni: Ey eski falak, bu yangi nazmni ko'rib, birdaniga hayratda qolma, chunki Foniy so'z ta'limini Jomiydan ko'plab olgan.

Demak, Alisher Navoiyning turkiycha:

Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay, -

deganlari bilan yuqorida keltirganimiz forsiycha aytgan fikrlarning hamohangligi ko'zga tashlanadi. Bu esa shundan guvohlik beradiki, ulug' shoir qaysi tilda bo'lmasin, yangilik yaratish, o'ziga xos uslubda ijod qilishni o'z oldiga maqsad qilib quygan va uni sharaf bilan bajargan.

G'azallarning ikkinchi guruhi esa tatabbo'' emas ma'nosida "muxtara' ", "muxtare' ", ya'ni "o'z ixtirosi" deb nomlangan.

Alisher Navoiy-Foniy g'azallari ishqiy, ijtimoiy, falsafiy-tasavvufiy, axloqiy mavzularda yozilgan bo'lib, badiiyat jihatidan mumtoz adabiyotshunoslikning qonun-qoidalari (aruz, qofiya, badiiy san'atlar) va talablariga muvofiqdir. Xuddi o'zbek tilidagi g'azallarda bo'lganidek, forsiy g'azallarning ko'pchiligi mavzu va badiiyat sohasida yakporalik xususiyatlariga ega. Bunday hol shoirning ham tatabbo'' va ham muxtare' g'azallarida ko'zga tashlanadi. Aytilgan fikrlarning tasdiqi uchun bir-ikki misolga murojaat etish mumkin.

Tatabbo'' g'azallaridan mashhur Hind shoiri Xusrav Dehlaviy g'azaliga yozilgan javobiya:

Matla': Meravad sarvi manu raftor memonad ba dil,
V-az guli ruxsori o' sad xor memonad ba dil.
Maqta': Foniyo, z-on kofarat nabvad xalosi k-at zi hajr,
As xayoli kokulash zunnor memonad ba dil.

(Devoni forsi, 161-162-betlar).

Mazmuni: (matla') mening sarvim (yorim) ketdiyu raftori (yurish-turishlari) ko'ngulda qoldi, uning gulday ruxsoridan yuz tikan ko'ngulda qoldi. (Maqta') Foniyo, u kofiringdan qutilish iloji yo'qqa o'xshaydi, chunki uning kokullari xayoli zunnor kabi ko'nguldadir, ya'ni kokullarning torlari ko'ngulni o'rab olganlar.

Mazkur g'azalda radif ham (memonad ba dil), qofiya ham (raftor, xor…) bor. Ana shu radif g'azalning mavzu va badiiylik jihatdan yakporaligini ta'minlashda muhim mavqe'ga ega. G'azalda yorning oshiq oldidan-nazdidan ketishi va ketishning oshiq ko'nglida qoldirgan og'ir asoratidan so'z boradi. G'azal oshiqning monologi-hijrondan qiynalayotgan yurak iztiroblari sifatida yozilgan. Muhimi shundaki, yor ketgan bo'lsa-da, ammo u oshiqning ko'nglida, xayolida mahkam o'rnashib olgan, shoir yozganidek, yorning sochlari oshiq ko'nglini shunday bog'lab olganki, ko'ngul ulardan qutila olmaydi. Bu g'azal o'qilar ekan, Alisher Navoiyning o'zbek tilida yozilib, quyidagi matla' bilan boshlanadigan g'azali xotirga keladi:

Yor bordiyu ko'nglumda aning nozi qolibdur,
Andoqki qulog'im to'la ovozi qolibdur.

Bunday holning diqqatga sazovorligi shundaki, Alisher Navoiy tomondan ikki tilda yozilgan g'azallarda ham bir mavzuga murojaat qilingan bo'lsa-da, ammo ularning har birida bu mavzu o'ziga xos ohang va qirralar, timsol va tasvirlar bilan qalamga olingan. Shunday bo'lsa-da, ijodiy uslubda yaxlitlik ko'zga tashlanadi.

Muxtare' g'azallardan birini ham ko'zdan kechirsak:

Matla': Omad bahori dilkashu gulhoyi tar shukuft,

Dilho az on nishot zi gul beshtar shukuft.
Maqta': Foni, ajab madon, agar on gul shukufta ast,
Az ashki abrsoni tu bishkuft, agar shukuft.
(Devoni forsi, 93-94-betlar).

Mazmuni: (matla') Dilkash bahor keldiyu toza gullar ochildi. Bu xursandlikdan guldan ko'ra ko'ngullar ko'proq yayradi.
(maqta') Foniy, gulning ochilganidan ajablanma, chunki u sening yomg'irday ko'z yoshlaring tufayli ochildi.

G'azalning har misrasi va baytidan bahorning hidi keladi, gullarning ochilishiyu ko'ngullarning yayrashidan quvonch balqib turadi. G'azalda ishlatilgan turli badiiy san'atlar ham ana shu kayfiyatga mos ishlatilgan. Shunisi ajoyibki, g'azaldan Alisher Navoiy-Foniyning fors tili nozikliklarini naqadar teran bilganligi seziladi. Bu holni Alisher Navoiyning o'zlari ham "Muhokamat ul-lug'atayn"da alohida uqtirgan edilar. Jumladan: "forsiy alfoz istifosin va ul iborat istiqsosin kishi mendin ko'prak qilmaydur erkin va saloh va fasodin mendin yaxshiroq bilmaydur erkin" (Asarlar. 15 tomlik, 14-tom, 121-bet), ya'ni boshqa birov forsiy tilning so'zlarini mendek o'zlashtirish va mazmunining tagiga yetisha olmas, u tilning g'ozalligi va fasodini mendan yaxshiroq bila olmas.

Faxriya tarzida aytilgan bu fikr aslida haqiqatdir. Mana shu xususiyat sabab bo'lgan bo'lsa kerakki, forsiygo'ylar Alisher Navoiy-Foniyning bu tilda yozgan go'zal asarlari, jumladan g'azallarini ham e'zozlaydilar.

2. Qasida. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida forsiy tildagi qasidalari, ularning nomlari va javobiya bo'lsa qaysi shoirlar qasidalariga tatabbo'' tarzida yozilgani haqida ancha teran ma'lumot beradi. (Asarlar. 15 tomlik, 14-tom, 122-125-betlar). Bu ma'lumotlar hamda "Devoni forsiy"da nashr ettirilgan qasidalarni o'rganish shundan dalolat beradiki, Alisher Navoiy-Foniy olti qasidadan iborat bir turkumni "Sittayi zaruriya" (Zaruriy oltilik) deb atagan bo'lsa, to'rt qasidadan iborat ikkinchi turkumga esa "Fusuli arba'a" (to'rt fasl) deb nom qo'ygan ekan. Bu ikki turkum o'nta qasidani o'zi ichiga oladi. Shuning bilan birga Alisher Navoiy-Foniy Xoja Salmon qasidasiga javoban yana bir qasida boshlagani haqida ham xabar beradi. Agar bularning hammasi umumlashtirilsa, unda Alisher Navoiy-Foniyning forsiy tilda o'n bitta qasida yozgani ma'lum bo'ladi.

"Sittayi zaruriya". Alisher Navoiy-Foniy turli yillarda yozgan oltita qasidasini Sulton Husayn Boyqaro ko'rsatmasi asosida 902-hijriy – 1497-melodiy yilda qasidalar turkumi sifatida tartib berib, uni "Sittayi zaruriya" deb ataydi.

"Sittayi zaruriya" debocha va oltita qasidadan iborat. Alisher Navoiy-Foniy tomonidan yozilgan nasriy debocha bir necha jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, unda "Sittayi zaruriya"ning tartib berish sababi va yili ko'rsatilgan; ikkinchidan esa qasidalarning joylashtirish tartibi va har birining mavzusi aniq ko'rsatilgan. Ana shuning uchun debochaning ikkinchi qismi, ya'ni har bir qasida haqida berilgan ma'lumotni o'zbek tilida bayon etish ma'qul ko'rinadi.

1. "Ruh ul-quds" – (muqaddas ruh) bo'lib, Alloh taolo hamdi berilgan.
2. "Ayn ul-hayot" – (hayot chashmasi) bo'lib, Rasulullo Muhammad (s.a.v.) na'tidir.
3. "To'hfat ul-afkor" – (fikrlar to'hfasi) bo'lib, Xusrav Dehlaviyning "Daryoyi abror"iga javobiya bo'lib, Abdurahmon Jomiyga bagishlangan.
4. "Quvvat ul-qulub" – (qalblarga quvvat) bo'lib, pand-nasihat va foydali mulohazalar bayonidan iborat.
5. "Minhoj un-najot" – (najot yo'llari) bo'lib, Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.

6. "Nasim ul-xuld" – (jannat shabadalari) bo'lib, "Mir'ot us-safo" (pokizalik ko'zgusi) qasidasiga javobiyadir.

"Sittayi zaruruiya" debochasidagi bu ma'lumot Alisher Navoiy tomonidan "Muhokamat ul-lug'atayn"da yanada kengaytirilgan va shunday yakunlangan: "Bu olti qasida hamd va na't va sano va mav'izatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma'rifat" (Asarlar. 15 tomlik, 14-tom, 122-125-betlar).

Ana shu qasidalardan "To'hfat ul afkor", uning yozilish tarixi, mavzu doirasi va shuhrati haqida qisqacha to'xtalmoq ma'qul deb bilindi. Buning sababi shundan iboratki, mazkur qasida yozilgach, u muallifning o'ziga ham, ustozi Abdurahmon Jomiyga ham, do'sti Sulton Husayn Boyqaro va boshqa sinchkov zamondoshlariga ham ma'qul tushgan va nihoyat maqtalgan edi. Jumladan, Abdurahmon Jomiy o'z "Bahoriston"larida Alisher Navoiy haqida so'z yuritib, mazkur qasida bobida shunday yozganlar; "(Alisher Navoiyning) Xusrav Dehlaviyning "Daryoyi abror" qasidasiga javob tarzida yozgan ("To'hfat ul-afkor") qasidasi nihoyat go'zal ma'nolar va chiroyli xayollarga boydir".

Eng qizig'i shundaki, Abdurahmon Jomiy bu qasidaga ("To'hfat ul-afkor"ga) javoban, Alisher Navoiy iboralari bilan aytganda, "muammo tariqi bila bir qasida aytibdurlar". Alisher Navoiy ham o'zining "Xamsat ul-mutahayyirin", "Sittayi zaruriya" debochasi, "Mukokamat ul-lug'atayn" asarlarida bu qasidani qayta-qayta tilga olganlar.

"To'hfat ul-afkor" 880-hijriy – 1475-melodiy yilda Marvga borayotganda yozilgan. Alisher Navoiy bu haqda shunday eslaydilar: "Faqir (Alisher Navoiy) Marvg'a borg'uncha ani (qasidani) ul Hazrat (Abdurahmon Jomiy) otiga tugattim va Marvdin ul Hazrat xizmatlarig'a bitib yiborildi". (MAT, 15-tom, 35-bet).

"To'hfat ul-afkor" qasidasi 99 baytdan iborat bo'lib, Xusrav Dehlaviyning "Daryoyi abror", Abdurahmon Jomiyning "Lujjat ul-asror" qasidalariga javoban yozilgan. Qasida quyidagi mashhur bayt bilan boshlanadi:

Otashin la'leki toji xusravonro zevar ast,
Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.

Mazmuni: Podshohlar tojini bezovchi o'tli (qip-qizil) la'l boshlardagi xom xayollarni pishiruvchi yolqin-cho'g'dir.

Alisher Navoiy-Foniyning "To'hfat ul-afkor" qasidasi o'zining falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va badiiy ko'lamining kengligi, ularning a'lo darajada idrok etilib, amalga oshirilgani jihatidan nazirayi benazir, ya'ni o'xshash-o'xshamas bir badiiy kashfiyotdir.

Qasidada shoirning shohlik va uning fazilatlari, jam'iyatdagi turli toifa sifatlari, faqr va faqirlikning naqshbandiya suluki nuqtayi nazaridan talqini va uning zabardast murshidi Abdurahmon Jomiyning olijanob fazilatlari haqidagi kuzatishlari falsafiy va badiiy uslubda bayon etilgan.

"To'hfat ul-afkor" qasidasining o'zi Alisher Navoiy-Foniyning forsiygo'ylikdagi ulkan imkoniyat va mahoratini namoyish etganidan ulug' shoirning fors tilidagi asarlaridan so'z yuritgan Sharq alloma va tazkiranavislari uni namuna va ibrat darajasida ekanini mamnuniyat bilan e'tirof etadilar.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA FAXRIYA
(XULOSA O'RNIDA)

Alisher Navoiy she'riyatining o'z zamonidan hozirga qadar shuhrat taratayotgani uning mazmun va badiiyat jihatidan yuksak darajada bo'lib, nazm mulkining sohibqironi qalamiga mansubligini hamisha namoyon etadi. Bu holni Alisher Navoiyning zabardast zamondoshlari malik ul-kalom mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Sulton Husayn Boyqaro –Husayniy, kichik zamondoshlaridan Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Mahmud Vosifiy va boshqalar ham samimiyat va hurmat bilan e'tirof etganlar. Keyinchalik esa bunday e'tirofning doirasi faqat Sharq bilan chegaralanib qolmay, balki G'arb ham bunga qo'shildi. Natijada ulug' shoir va mutafakkir merosining jahoniy ahamiyatga molikligi tan olindi va olinmoqda.

Bas shunday ekan, ham shoir, ham adabiyotshunos-tanqidchi bo'lgan Alisher Navoiyning o'zi o'z ijodi va uning ahamiyati haqida ham mulohaza yuritganmi hamda ularni qanday tushinmoq va talqin qilmoq darkor, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob topish maqsadida Alisher Navoiyning she'riy, nasriy asarlari va dostonlari nazardan o'tkazilsa, unda bu savolga ijobiy javob berish mumkin, ya'ni Alisher Navoiy so'z san'atkori sifatida o'z asarlarini yaratish bilan birga shu jarayonning o'zida unga (she'riyat va boshqa asarlariga) adabiyotshunos, adabiy tanqidchi ko'zi bilan qarab baho ham berib borgan. Bunday hol, ya'ni ijodkorning o'z ijodi haqida so'z yuritishi yoki uning ahamiyati to'g'risida mulohaza bildirishi Sharq adabiyoti tarixida, jumladan, arab, fors va turkiy adabiyotlar tarixida uchraydigan adabiy-badiiy hodisadir. Bu hodisa adabiyotshunoslikda faxriya deb ataladi. Faxriya arabcha so'z bo'lib, arab she'riyatining nav'lari (janrlari)dan biridir. Unda ma'lum bir qavm, urug' yoki qabilaga mansub bo'lgan shoir o'zi mansub bo'lgan qavm, urug' yoki qabila, uning holati, tarixi, mashhur kishilari haqida, o'zining esa ana shunga daxldorligini faxr va g'urur bilan bayon etgan. Forsiy va turkiy adabiyotlarda shu nom (faxriya) bilan ataladigan she'riy nav' (janr) uchramaydi. Ammo shoirning o'zi va ijodiyoti haqida faxrlanib so'z yuritishi turli nav'lardagi (g'azal, qit'a, masnaviy…) asarlarda bir-ikki yoki undan ko'proq baytlarda ifoda etiladi. Bunday hol Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Atoiy, mavlono Lutfiy va boshqa shoirlar ijodiyotida ko'zga tashlanadi (B.Valixo'jayev. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi, 10-13-betlar).

Alisher Navoiy she'riyatining turli nav'larida ham faxriyaning mavjudligi bu jihatdan tabiiydir, ya'ni an'ananing davom ettirishidir.

Alisher Navoiy she'riyatidagi faxriyalar kuzatilar ekan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ularda bir necha mavzulardan bahs yuritilgan. Bu mavzularni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Mumtoz she'riyat xususiyatlari va ustozlar haqida mulohazalar.
2. O'z she'riyatining xususiyatlari.
3. Ijodining ahamiyati va o'zining she'riyatda tutgan mavqei.

Birinchi mavzudan bahs yurituvchi faxriyalarda ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyat shundan iboratki, Alisher Navoiy ularda mumtoz she'riyatning daholari-ustozlarini, asarlari va ijodiy uslublarini sharaflash, maqtash bilan ulardan bahramandlik tufayli o'z ijodiy iqtidori imkoniyatlaridan so'z yuritadi. Bu jarayonda Alisher Navoiyning, bir tomonidan, mumtoz adabiyot daho vakillari ijodiyoti bilan chuqur tanishganligi va ularga adabiyotshunos sifatida mo'jaz tarzda yuksak tarzda baho berganligi ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan esa o'zining ijodiy imkoniyati va she'riyati xususiyatlari haqidagi mulohazalari o'rtaga tashlangan. Fikrimizning isboti uchun avvalida Alisher Navoiyning g'azal nav'i bilan bog'li bo'lgan mulohazalarini ko'zdan kechirish ma'qul ko'rindi. Alisher Navoiy "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan qit'alardan birida shunday yozadi:

G'azalda uch kishi tavridur ul nav'
Kim andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.
Biri mo''jiz bayonlig' sohiri Hind
Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.
Biri Isonafaslik rindi Sheroz
Fano dayrida mastu louboli.
Biri qudsiy asarlik orifi Jom,
Ki jomi Jamdur sing'on safoli.
Navoiy nazmig'a boqsang emastur
Bu uchning holidin har bayti xoli.
Hamono ko'zgudurkim, aks solmish
Anga uch sho'x mahvashning jamoli.
(MAT, 6-tom, 516-bet)

To'gri, bu misol ko'pgina olimlar tomonidan foydalanilgan va sharhlangan. Biz esa unga mavzu taqozosiga ko'ra munosabatda bo'lib, uning haqida qisqacha so'z yuritmoqchimiz. Ma'lumki, g'azal Sharq mumtoz she'riyatining eng ko'p qo'llanadigan nav'laridan biri bo'lib, Alisher Navoiyhacha bo'lgan davrda turkiy va forsiy tilli ko'pgina shoirlar bu nav'da ijod qilganlar, devonlar tuzganlar. Alisher Navoiy ularni chuqur o'rganib, tahlil qilib, g'azal sohasidagi eng mashhur uch nafarni – "sohiri Hind" – Xusrav Dehlaviy, "rindi Sheroz" – Xoja Hofiz Sheroziy va "orifi Jom-Abdurahmon Jomiylarni alohida ta'kidlaydi va qit'aning birinchi baytida shunday yozadi:

G'azalda uch kishi tavridur ul nav'
Kim, andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.

Demak, Alisher Navoiy bu uch daho g'azallari "tavri"ni – uslubini, "andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli", ya'ni "mening tushinishimcha, ulardan yaxshi nazm – she'riyat yo'q", deb biladi. Alisher Navoiyning bu xulosasi g'azal nav'i-janri xususiyatlari tadrijiy takomulining bu uch daho asarlarida mujassam bo'lganligini chuqur idrok etish hamdir. Buning uchun Alisher Navoiy g'azal taraqqiyoti bosqichlari va xususiyatlarini faqat shoir sifatidagina emas, balki adabiyotshunos sifatida chuqur tahlil va talqin qilgan hamda shoir-adabiyotshunos Alisher Navoiyning aqidasiga ko'ra yuqoridagiday xulosaga kelgan. Bu qit'aning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgani e'tiborga olinsa, uning yozilish tarixi ham 90-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa kerak, deb o'ylash mumkin. Buni eslatishdan maqsad shuki, 1496-yilda (ya'ni "Favoyid ul-kibar" devoni tuzilayotgan davrlarda) yozilgan "Nasoyim ul-muhabbat"da Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan bo'limlarda bizni qiziqtirayotgan masalaga oid fikrlarning qit'ada bayon etilgan fikrlar bilan hamohangligi diqqatga sazovordir. Jumladan, Alisher Navoiy unda Xusrav Dehlaviyning she'rlari haqida quyidagicha yozadi: "Anga (Xusrav Dehlaviyga) ishq va muhabbat mashrabidin choshniyi (halovat) tamom bor emish. Andoqki, so'zlaridin zohirdurki, bag'oyat vajdu holliq (zavqu shavqlik) ekandur. Shayx (Nizomiddin avliyo – Xusrav Dehlaviyning piri, murshidi) der ekandurki, "qiyomatda har kishi bir nima bila faxr etgay. Men bu turkning, ya'ni Xusrav (Dehlaviy)ning ko'ksining kuyuki bila faxr qilg'umdur" (Asarlar. 15 tomlik, 15-tom, 178-bet). Agar e'tibor qilinsa, qit'ada Xusrav Dehlaviy – "sohiri Hind" (Hind sehrgari) haqida gapirib, "ishq ahlini o'rtar so'zu holi" deyilgan bo'lsa, "Nasoyim ul-muhabbat"da Shayx Nizomiddin avliyo tilidan "Xusravning ko'ksining kuyuki bila faxr qilg'umdur"ning keltirilishda umumiylik, xususan ishq-muhabbat bobidagi "kuyib-yonish"ning shoir shaxsiyatida ham, uning ijodi-she'riyatida ham uyg'unligi ta'kidlanadi. Bu bejiz emasdek tuyuladi. Chunki Alisher Navoiy ham ishq-muhabbat tasvirida ana shu fazilatni ("so'zu hol" – kuyib-yonish, ko'ksining kuyuki) ardoqlaydi. Bu hol, albatta, boshqa g'azalnavis shoirlarda ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Nasoyim ul-muhabbat"da Shayx Sa'diyni "g'azal tavrig'a… muxtare'dur" deyish bilan bir qatorda" ishqbozlarg'a va dilafro'xtalarg'a (yuragi kuyganlarga) va jongudozlarg'a (jon kuydiruvchilarga) filvoqe' g'arib haqqe (ajoyib ishni) sobit qilibdur" (Asarlar. 15 tomlik, 15-tom, 172-bet), deb ham uqtiradi. Bas shunday ekan, Alisher Navoiy qit'asida Xusrav Dehlaviy g'azaliyotida ishq-muhabbat tasviri bobidagi "so'zu holi" – kuyish-yonishlariga alohida diqqat qilinishi Xusrav Dehlaviyning bu sohada Shayx Sa'diy an'analarini rivojlantirganiga ishora hamdir, deb tushinmoq mumkin.

Demak, Alisher Navoiy g'azal nav'i taraqqiyotini nozik tarzda idrok etib, Shayx Sa'diydan Xusrav Dehlaviy ijodigacha bo'lgan jarayonda Xusrav Dehlaviy she'riyatida ishq-muhabbat mavzusini tasvirlashda ruhiy kechinmalar (kuyib-yonishlar)ning nihoyatda kuchayganini alohida uqtirmoqda. Bu fikr Alisher Navoiyning umrlari oxirida yozilgan "Mahbub ul-qulub" asarlarida yana bir karra tasdiqlanadi. Jumladan: "Ishq ahlining pokbozlari va shavqu niyoz ahlining nazmtiroz va afsonapardozlari mutaqaddimindin andoqkim, nazm beshasining g'azanfari va dardu ishq otashkadasining samandari va zavqu hol vodisining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nafas va guftori, pok alfoz va maoniyliq ash'ori ishq ahlining orasida g'avg'o va vajdu hol anjumani fazosida alolo solibdur". (MAT, 14-tom, 68-bet). Muhimi shundaki, bu fikrning to'g'riligi va haqqoniyligini zamonamiz olimlari ham ma'qullaydilar (A.Mirzoyev. Sezdah maqola, 41-42 - betlar). Qit'ada tilga

olingan ikkinchi shoir "rindi Sheroz" – Xoja Hofiz Sheroziydir. Alisher Navoiy uni "Isonafas" sifatida ulug'laydi, ya'ni hazrati Isoning nafaslari o'lik jismlarga jon ato qilganiday, Hofiz Sheroziy ham o'z so'zi-she'rlari bilan "o'lik"larga tiriklik bag'ishlaydi, ya'ne "fano dayrida mastu loubollik" bilan insonlarni o'zligini tanishga undaydi. O'zligini tanishga intilgan inson esa jaholatdan (ma'naviy o'lik holatdan) ma'rifatga (ma'naviy tiriklikka) qadam qo'yadi. Qit'ada eslatilgan "orifi Jom" – Abdurahmon Jomiy she'riyati esa ana shu holni mustahkamlashga qaratilgan. Shundan so'ng keltirilgan to'rt misrada Alisher Navoiy juda nozik tarzda faxriyani ishlatib, unda yuqorida tilga olingan ustozlar uslublarining o'z she'riyatida qorishgani tufayli maydonga kelgan yangi uslub – navoiyona uslubga ishora qiladi:

Navoiy nazmig'a boqsang, emastur,
Bu uchning holidin har bayti xoli.
Hamono ko'zgudurkim, aks solmish
Anga uch sho'x mahvashning jamoli.

Bunda Alisher Navoiy o'z she'riyatini salaflar an'analari nurlarini o'zida mujassam etgan ko'zguga o'xshatib, bu an'analarning nurlari ko'zguda (she'riyatida) yangicha nurlarni aks ettirgani - o'z she'riyatining o'ziga xosligidan faxrlanmoqda. Quyidagi faxriyalarda ham bu masalaga ishora qilish ko'zga tashlanadi:

Demangiz bulbul Navoiyni samandardekki, bor
Nazmi ichra sho''layi Jomiyu so'zi Xusraviy.
(MAT, 3-tom, 398-bet).

Yoki

Ey Navoiy, senu Xusrav bila Jomiy tavri
San'atu rangni qo'y, so'zda kerak dard ila so'z.
(MAT, 5-tom, 157-bet).

Ikkinchi misolda shoir yana bir muhim masalaga diqqatni qaratadi, ya'ni she'riyatda "san'atu rang" – ortiqcha oro-toro – turli san'atlarni ishlatish asosiy masala emas, balki uning mazmuni-ma'nosi insonlar qalbiga kirib boruvchi, ular qalbining "dardu so'zi"ni ifoda etuvchi bo'lmog'i kerakligi haqidagi nazariy fikr mo''jaz tarzda bayon etilgan. Bu juda muhim masala bo'lib, Alisher Navoiy she'riyati ko'zdan kechirilsa, unda ana shu aqidaga to'la amal qilinganligi natijasida shoir she'riaytining o'quvchi ko'nglining to'ridan joy olganligi sabablari oydinlashadi. Chunki Alisher Navoiyning "dardu so'zi" uning she'riyatida shunchalik joziba bilan ifoda etilganki, bu joziba she'riyatning sehri sabablaridan biridir.

Ko'rinadiki, faxriyada ustozlar an'analaridan bahramandlik asosida yangilik yaratish masalasi hamda she'riyatning asosini mazmun – ma'no tashkil etishi, "san'atu rang" esa ma'no – mazmunni yanada go'zal ifodalashga xizmat qilishi zarurligi to'g'risidagi nazariy qarashlar ham ifoda etilgan. Bu masala quyidagi qit'ada yanada yorqinroq ifodalangan:

Nazmim ichra g'arib ma'nilar,
G'urabo xaylidin nishonadurur.
Anda har bayt necha ma'ni bila,
Bayt emaskim, g'arib xonadurur.
(MAT, 6-tom, 519-bet).

Alisher Navoiyning shu qit'a uchun yozgan sarlavhasidagi sharh qit'adagi ayrim so'z – iboralarni qaysi ma'noda ishlatilganligini tushinmoq uchun nihoyatda muhim bo'lganidan uni keltirish lozim ko'rildi: "Nazminin baytlarin g'arib ma'nilari bila g'aribxona debtur, ya'ni dor ush-shifo (shifoxona)ki, mujibi shifo bo'lg'ay". Demak, Alisher Navoiyning nazmi – she'riyati, bir tomondan, "dardu so'z" ifodachisi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa insonlarning ko'ngil dardlariga shifo bag'ishlaguvchi, davo berguvchi shifoxona hamdir. Bu bilan Alisher Navoiu o'zini insonlarni ruhiy jihatdan tarbiyalavchi, davolovchi tabib tarzida, she'rlarining esa davobaxsh doru sifatida talqin qilmoqda. Shunisi diqqatga

sazovorki, Alisher Navoiy faxriyalarida she'riyatining "ahli dard", "ishq ahli", "ahli junun"ga (ishq – muhabbat bobida) qanchalik foydali bo'lsa, bu she'rlar, o'z navbatida "ahli xirad" (donishmandlar), "nazm ahli" (shoirlar), "mutriblar", "shoh"lar uchun ham shunchalik zavq bag'ishlaguvchi ekanidan mamnuniyat bilan faxrlanib so'z yuritadi. Jumladan:

1. To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'lubtur
(MAT, 1-tom, 141-bet).

2. Ishq ta'limin Navoiydin olurlar ahli dard,
O'yla dars ahlig'a mundog' donishomo'ze kerak.
(MAT,3-tom, 269-bet).

3. Ne ajab ahli xirad xushdil Navoiy nazmidin,
Javhariy topqonda, tong yo'q, yaxshi gavhar topsa hazz.
(MAT, 5-tom, 207-bet).

4. Oncha faryod etti mutriblar Navoiy nazmidin
Kim Utorid she'ridin charx uzra Nohid etmagay
(MAT, 4-tom, 455-bet).

5. Navoiy nazmig'a solsa quloq shah, ne ajabkim bor,
Aning har lafzida shohona la'l durri maknundek.
(MAT, 3-tom, 272-bet)

6. Debturki: "Navoiy so'zining bandasidurmen".
Bu lutf ila ul shahda zarofat bo'lur ermish.
(MAT, 5-tom, 184-bet).

Bu faxriyalardan ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy o'z she'riyati jamiyatning barcha toifalari tomonidan xushdillik bilan kutib olinganini eslatish va, tabiiy ki, bu bilan faxrlanish bilan chegaralanib qolmay, balki o'zini "ishq ta'limi"ning "donishomo'zi"-ishqdan ta'lim beruvchi ustoz deb ham haqli ravishda faxrlanadi. Alisher Navoiyning bu gaplari "shoirona mubolag'a" deguvchilar ham bo'lar. Darhaqiqat, bular "shoirona mubolag'a"lardir. Ammo aslini olganda, bu "shoirona mubolag'a"-faxriyalar masalaning mohiyatini haqqoniy tushinishga, ya'ni shoir Alisher Navoiyning adabiyotshunos Alisher Navoiy tomonidan haqqoniy baholanganini namoyish etadi. Chunki uning zamondoshlari, jumladan G'iyosiddin Xondamir, Zayniddin Mahmud Vosifiylar o'z asarlarida Alisher Navoiyning bu sohadagi xizmatlari haqida yuksak baho berganlar. Chunonchi mavlono Xondamir "Makorim ul-axloq"da shunday yozadi: "Hazrati sultonning yaqin do'sti (Alisher Navoiyning)… mahorati…shunday darajada ediki, agar ilgari o'tmish shoirlar uning muborak zamonida bo'lsalar edi, so'zlash daftarini yig'ishtirib qo'yib, dunyo tevaragidan uning fazilat uyining ostonasiga qarab yugurar edilar" (Xondamir. Makorim ul-axloq, 44-bet). Bunday e'tiroflar ustozi Abdurahmon Jomiy, do'sti, Xuroson sohibqironi Sulton Husayn Boyqarolar tomonidan bildirilgani ham ma'lum. Alisher Navoiy bularning ko'pisidan xabardor edi. Jumladan, "Navodir ush-shabob" devonidagi quyidagi misralar fikrimizni tasdiqlashga xizmat qila oladi:

Navoiy istadi behush o'zinki, ahli xirad
Falakning o'lmadi bu ishda mahrami rozi.
Anga bu baski jahon mulki oldi so'z birla
Chekib sipohi maoni-dami fusunsozi.
Bu vajh birlaki Sohibqiron debon laqabin.
Atadi Xusravi Sohibqiron Abulg'ozi.
(MAT, 4-tom, 469-bet)

Yoki:

Dedim: "Nazm ahlining sarxayli kim bo'lg'ay?"
Dedi hotif:

"Navoiy bo'lg'ay ulkim, Sen tilaydursen, agar bo'lg'ay".

(MAT, 4-tom, 443-bet).

Ko'rinadiki, Alisher Navoiyning faxriyalarida bayon etilgan "shoirona mubolag'a"lar zamondoshlarining uning she'riyati va asarlari, umuman olganda badiiy merosi haqida bildirilgan haqqoniy baholarning shoir – Alisher Navoiy tomonidan umumlashtirilgan tarzdagi ifodasidir. Shuning uchun uning faxriyalarini adabiy-estetik qarashlar mujassami sifatida sharhlash mumkin.

Alisher Navoiy faxriyalarida o'z asarlari, jumladan she'riyatining ijtimoiy toifalarga zavq bag'ishlaguchigina bo'lib qolmay, balki uning "navo"lari tabiat qushlarining eng xushnavosi bo'lmish bulbullarga ham ilhom bag'ishlaguchi ekanidan so'z yuritadi. Bu ham "shoirona mubolag'a", ammo chiroyli va kishini hayratda qoldiruvchi mubolag'adir. Jumladan:

1. Bulbullar olur nolani ta'lim, agar etsa,
Bog' ichra Navoiy o'z-o'zi birla tarannum.

(MAT, 4-tom, 318-bet).

2. Navo ming aylasa bulbul Navoiy ortuq emish
Ki munglar o'ldi adadsiz mungung navosida.

(MAT, 4-tom, 404-bet)

3. Yuzung bog'ida bulbuldur Navoiy
Navo qilsa, aning ovozidur bu.

(MAT, 4-tom, 378-bet).

4. Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

(MAT, 4-tom, 67-bet).

Alisher Navoiy faxriyalarining ba'zilarida she'rlari shoirning tinimsiz mehnati tufayli "xuni jigari"-jigari qoni va "ko'z yoshlari" bilan yozilganligi jihatidan "ranginu ravon" bo'lganligi ham tilga olinadi:

Navoiy nazmi ranginu ravon ersa, ajab ermas
Ki maxlut o'ldi ko'z yoshi bila xuni jigar anda.

(MAT, 4-tom, 23-bet).

Demakki, she'riyatda "dardu so'z"ning jigar qoni (rangin) va ko'z yoshlari (ravon) bilan yozilganidan ular o'quvchi qalbini to'lqinlantiradi quvonch bag'ishlaydi, yig'latadi, kuldiradi, g'azabni qo'zg'atadi, mehru muhabbat va shafqatni oshiradi. Faxriyada bildirilgan bunday qarashlar faqat Alisher Navoiyning o'zigagina taalluqli bo'lmay, balki she'riyat bilan shug'ullanuvchi ijod ahliga ham daxldordir. Quyidagi faxriyada ham ana shu mavzu davom ettirilib, ularda she'riyatining "jon shirasi" bilan yozilganligi, "shakarguftor la'l" – yorning shirin so'zlaguvchi la'l-lablari shoir qalbida chuqur o'rnashib qolgani tufayli Alisher Navoiy she'rlari "shiriny rangin" bo'lganligi aytiladi:

1. Kilkida Navoiyning jon shirasi muzmardur.
Har nayda qachon bo'lg'ay bu nav' shakar paydo.

(MAT, 5-tom, 30-bet).

2. Gar Navoiyning so'zi shirinu rangindur ne tong,
Kim erur ko'nglida doim ul shakarguftor la'l.

(MAT, 4-tom, 270-bet).

Ana shunday ijodiy mehnat natijasi bo'lmish she'riyatining go'zalligidan faxrlangan shoir quyidagicha yozishda tamoman haqlidir:

Navoiy, bu husni kaloming bila,
Emas hojat ehsonu tahsin Senga.

(MAT, 6-tom, 18-bet).

Shunday qilib, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy g'azal mulkininggina emas, balki she'riyat mulkining sohibqironi sifatida o'zining ko'pqirrali va barkamol asarlari, jumladan she'riyati bilan o'zbek ba Sharq mumtoz adabiyoti xazinasini nodir badiiyat durdonalari bilan boyitdi. Shuning uchun XV asrdan so'ng fa'oliyat ko'rsatgan o'zbek, ozarboyjon, turk, turkman, tatar, qozoq va boshqa turkiy adabiyotlarning yetuk namoyandalari hamda forsiygo'ylar ham Alisher Navoiyni ustoz deb e'zozlab, uning ijodiy an'analarini davom ettirib keldilar va hozir ham bu jarayon davom etmoqda. Alisher Navoiyning o'zlari yozganlaridek:

Ey Navoiy, qilg'ali tab' ahli jinsi she'r nazm
Nazming o'ldi barchasig'a qofiya, balkim radif.

Bu esa nazm mulkining Sohibqironi Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning abadiyatidan dalolatdir.

MANBA' VA ADABIYOTLAR

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, "O'zbekiston", 2000.

Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. Dushanbe, "Irfon", 1967.

Alisher Navoiy. Ilk devon. Toshkent, "Fan", 1968.

Alisher Navoiy. Badoye' ul-bidoya. Mukammal asarlar to'plami (MAT), 20 tomlik, 1-tom, Toshkent, "Fan", 1987.

Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. MAT, 2-tom, Toshkent, 1987.

Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoni. MAT, 3-4-5-6-tomlar, Toshkent, 1988-1990.

Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT, 14-tom, Toshkent, 1998, 5-130-betlar.

Alisher Navoiy. Munshaot. MAT, 14-tom, 131-229-betlar.

Alisher Navoiy. Vaqfiya. MAT, 14-tom, 231-270-betlar.

Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. MAT, 15-tom, Toshkent, 1999, 5-85 betlar.

Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. MAT, 15-tom, 123-181-betlar.

Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom, Toshkent, BAN, 1967, 133-182-betlar.

Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Asarlar, 15 tomlik, 14-tom, 103-132-betlar.

Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimin. Toshkent, "Minhoj", 1991.

Alisher Navoiy. Arba'in. Toshkent, "Mehnat", 1991.

Alisher Navoiy. Fusuli arbaa. Buxoro, "Ilm", 1998.

Alisher Navoiy – Foni. Devoni forsi. Dushanbe, "Irfon", 1993.

Jaloliddin Muhammad Balxi-Rumi. Masnavii ma'navi. Farhang, 1991, №8.

Xondamir. Makorim ul-axloq. Toshkent, 1967.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent, "Fan", 1960.

Abdug'afurov A. Misra'lar jozibasi. "Alisher Navoiyning badiiy mahorati masalalari". Maqolalar to'plami. Toshkent, "Fan", 1993, 26-51-betlar.

Alisher Navoiyning badiiy mahorati masalalari. Maqolalar to'plami. Toshkent, "Fan" 1993.

Boltayeva G.Sh. Alisher Navoiy "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining manba'lari va g'oyaviy-badiiy tahlili. NDA, Toshkent, 1999.

Hamid Sulaymon. Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi, ADD, Tashkent, 1961.

Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, "O'qituvchi", 1993.

Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Toshkent, "Cho'lpon", 1991.

Ishoqov Yo. Navoyi poetikasi. Toshkent, "Fan", 1983.

Jumayev N. G'azalda g'oya va badiiy mahorat mutanosibligi. "Alisher Navoiyning badiiy mahorati masalalari". Maqolalar to'plami, Toshkent, "Fan", 1993, 51-67-betlar.

Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob, Toshkent, 1994. 2-kitob, Toshkent, 1999.

Mirzoyev A. Sezdah maqola. Dushanbe, "Irfon", 1977.

Sultonmurod Olim. Luqmayi halol. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1997.
Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent, “O'zbekiston”, 1993.
Valixo'jayev B. “Arba’in hadis” va uning tarjimalari “Alisher Navoiyning badiiy mahorati masalalari”. Maqolalar to'plami. Toshkent, “Fan”, 1993, 126-135-betlar.
Valixo'jayev B. Malik ul-kalom mavlono Lutfiy. Samarqand, SamDU nashriyoti, 1999.
Valixo'jayev B. Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy she’riyati. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2000.
Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro, “Buxoro” nashriyoti, 1994.
O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom, Toshkent, “Fan”, 1978.